Hujjat tekshirish natijalari

Tekshiruvchi: Akbarova Mohigul Gulomovna (ID: 11375)
Tashkilot: GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
Lavozimi:
o 'qituvchi

Hisobot "Antiplag.Uz" servisi tomonidan taqdim etilgan

HUJJAT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Hujjat raqami: 85184
Yuklangan vaqti: 27-01-2023 13:55:00
Dastlabki faylning nomi: Xomidov Zokir.docx
Hujjat nomi: Xomidov Zokir.docx
Hujjat turi: belgilanmagan
Matndagi belgilar: 69602
Matndagi so'zlar: 8195
Gaplar soni: 730
Matn o'lchami:23841223 kB

HISOBOT TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR

Qidirish oralig'i: ko'rsatilmaga
Qidirish modullari: eLIBRARY.RU qidiruv moduli, Bibliografiya qidiruv moduli, BMK dissertatsiyalari qidiruv moduli, Wiley nashriyoti qidiruv moduli, Internet plyus qidiruv moduli, ИПС Адилет qidiruv moduli, Universitetlar halqasi qidiruv moduli, Tabobat qidiruv moduli, Модуль поиска переводных заимствований qidiruv moduli, Patentlar qidiruv moduli, Tarjima tekshiruvi en-ru qidiruv moduli, Tarjima tekshiruvi uz-ru qidiruv moduli, Переводные заимствования по Интернету (EnRu) qidiruv moduli, Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli, Iboralarni qayta ishlatish qidiruv moduli, Internet plyus qidiruv moduli, RDK to'plami qidiruv moduli, Elektron-kutubxona tizimlari qidiruv moduli, Rossiya va MDH OAVlari qidiruv moduli, Garant AHT qidiruv moduli, Iqtibos keltirish qidiruv moduli, Shablon iboralar qidiruv moduli, Milliy reestr qidiruv moduli, Перефразирование по СПС Гарант: аналитика qidiruv moduli, Переводные заимствования издательства Wiley (RuEn) qidiruv moduli, СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli



O'ZLASHTIRIB OLISHLAR	O'Z-'IDAN IQTIBOS KELTIRISHLAR	IQTIBOS KELTIRISHLAR	ORIGINALLIK
4.95%	0%	0.5%	94.55%

O'zlashtirib olish — topilgan barcha matnli kesishmalar ulushi, tizim hujjatning umumiy hajmiga nisbatan iqtibos keltirishga kiritganlaridan tashqari.
O'z-o'zidan iqtibos keltirishlar — tekshirilayotgan hujjatdagi muallifi yoki hammuallifi tekshirilayotgan hujjatning muallifi bo'lgan manba matni fragmenti bilan mos tushuvchi yoki deyarli mos tushuvchi matn fragmentlarining hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.
Iqtibos keltirish — muallifniki bo'lmagan, biroq tizim ulardan foydalanishni to'g'ri deb hisoblagan matnli kesishmalarning hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi. Bunga GOST bo'yicha qilingan iqtiboslar: umumfoydalanuvchi ifodalar; me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plamidan olingan manbalarda topilgan matn fragmentlari kiradi.
Matnli kesishma — tekshirilayotgan hujjatdagi manba matni fragmenti bilan ustma-ust yoki deyarli ustma-ust tushuvchi matn fragmenti.
Manba — tizimda indekslangan va tekshirish o'tkaziluvchi qidirish modulida mavjud bo'lgan hujjat.
Originallik — tekshirilayotgan hujjat matnidagi tekshiruv borgan birorta ham manbada topilmagan fragmentlarning hujjatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi.
O'zlashtirib olishlar, o'z-o'zidan iqtibos keltirishlar, iqtibos keltirishlar va originallik alohida ko'rsatkichlar hisoblanadi va jami bo'lib 100%, ni beradi, bu esa butun tekshirilayotgan hujjat matniga mos keladi.
E'tiboringizni tizim tekshirilayotgan hujjatning tizimda indekslangan matnli manbalar bilan matnli kesishmalarni topishiga qaratamiz. Bunda tizim yordamchi vosita hisoblanadi, o'zlashtirib olishlar yoki iqtibos keltirishlarning to'g'riligi va o'rinliligini hamda tekshirilayotgan hujjat matnli fragmentlarining muallifi kimligini aniqlash tekshiruvchining vakolatida qoladi.

№	Hisobotdagi ulushi	Manba	Qidirish moduli
[01]	4.44%	http://library.samdu .uz/files/ff9aa401fd 5977c469db51016a2829 3b_CHOLG%60U%20IJROC HILIGI.pdf http://library.samdu.uz/files/ff9aa401fd5977c469db51016a28293b_CHOLG%60U%20IJROCHILIGI.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[02]	0%	http://library.samdu .uz/files/ff9aa401fd 5977c469db51016a2829 3b_CHOLG%60U%20IJROC HILIGI.pdf http://library.samdu.uz/files/ff9aa401fd5977c469db51016a28293b_CHOLG%60U%20IJROCHILIGI.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[03]	0.51%	212166m http://unesdoc.unesco.org/images/0021/002121/212166m.pdf#7	Переводные заимствования по Интернету (UzRu) qidiruv moduli
[04]	0.5%	Постановление Администрации Волгограда от 15 марта 2022 г. N 261 "О закреплении муниципальных общеобразовательных учреждений Волгограда за территориями городского округа город-герой Волгоград" http://ivo.garant.ru/#/document/404572648	СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli
[05]	0%	СПОСОБЫ ЛЕЧЕНИЯ ВОСПАЛИТЕЛЬНОЙ БОЛИ. http://elibrary.ru/item.asp?id=18473643	eLIBRARY.RU qidiruv moduli
[06]	0%	What's in a Name? A Critical Examination of Published and Website Sources on the Dualism of the Cathars in Languedoc https://doi.org/10.1111/j.1467-9809.2011.01142.x	Wiley nashriyoti qidiruv moduli
[07]	0%	Постановление Исполнительного комитета муниципального образования города Казани от 25 февраля 2021 г. N 434 "О закреплении муниципальных образовательных организаций за конкретными территориями города Казани" (с изменениями и дополнениями) (документ утр... http://ivo.garant.ru/#/document/400397300	СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli
[08]	0%	ТЕОРИЯ ДЕЛИМОСТИ И ЧЕТНО-ПРОСТЫЕ ЧИСЛА. http://elibrary.ru/item.asp?id=29772978	eLIBRARY.RU qidiruv moduli
[09]	0%	Mejoramiento de la productividad en el área de la producción de balanceado en la empresa Reproavi mediante loa implementación del estudio de métodos y tiempos https://core.ac.uk/download/pdf/200324492.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[10]	0%	БИСПЕЦИФИЧЕСКОЕ АНТИТЕЛО, ЗАМЕНЯЮЩЕЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ БЕЛКИ. http://elibrary.ru/item.asp?id=18609442	eLIBRARY.RU qidiruv moduli
[11]	0%	Transport properties of oxygen https://core.ac.uk/download/pdf/42852515.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[12]	0%	Постановление Администрации Златоустовского городского округа Челябинской области от 8 ноября 2018 г. N 464-П "О внесении изменений в постановление Администрации Златоустовского городского округа от 06.05.2015 г. N 163-П "Об образовании избирательных у... http://ivo.garant.ru/#/document/19860187	СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli

[13]	0%	Калькулятор индекса массы тела. Рассчитать индекс массы тела https://beregifiguru.ru/%D0%9A%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BA%D1%83%D0%BB%D1%8F%D1%82%D0%BE%D1%80%D1%8B/%D0%A0%D0%B0%D1%81%D1%87%D0%B5%D1%82-%D0%B8%D0%BD%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81%D0%B0-%D0%BC%D0%B0%D1%81%D1%81%D1%8B-%D1%82%D0%B5%D0%BB%D0%B0	Internet plyus qidiruv moduli
[14]	0%	Адреса и телефоны мировых судей Республики Татарстан http://ivo.garant.ru/#/document/8229535	Garant AHT qidiruv moduli
[15]	0%	Решение Арбитражного суда Вологодской области от 4 июля 2022 г. по делу N A13-9546/2020 (ключевые темы: линии связи - плата за пользование - технический план - неосновательное обогащение - рыночная стоимость) http://arbitr.garant.ru/#/document/94090429	СПС Гарант: нормативно-правовая документация qidiruv moduli
[16]	0%	Карнавальные костюмы для детей по низким ценам https://tigra66.ru/store/detskie-karnavalnye-kostyumy/	Internet plyus qidiruv moduli
[17]	0%	Ion structure determination using novel time-of-flight techniques and mass-analysed ion kinetic energy spectrometry. https://core.ac.uk/download/161880615.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[18]	0%	Геохронология гранитоидных комплексов Главного Колымского батолитового пояса (северо-восток России). http://elibrary.ru/item.asp?id=23502547	eLIBRARY.RU qidiruv moduli
[19]	0%	OIL PRICE REVIEW https://doi.org/10.1111/j.1744-7992.2008.330710.x	Wiley nashriyoti qidiruv moduli
[20]	0%	The structure and fault activity of the Makran accretionary prism https://doi.org/10.1029/2012JB009312	Wiley nashriyoti qidiruv moduli
[21]	0%	Iron and steel yearbook 1976 https://core.ac.uk/download/76818627.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[22]	0%	Gas prices 1990-1997 https://core.ac.uk/download/76820898.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[23]	0%	Iron and steel statistical bulletin quarterly 3-1976 https://core.ac.uk/download/91635489.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[24]	0%	Iron and steel statistical bulletin quarterly 1-1977 https://core.ac.uk/download/76819816.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[25]	0%	Monthly Report on Socio Economic Data, December 2016 https://media.neliti.com/media/publications/48291-ID-laporan-bulanan-data-sosial-ekonomi-desember-2016.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[26]	0%	Dutor - Asqarali odilov https://hozir.org/asqarali-odilov-v2.html?page=12	Internet plyus qidiruv moduli
[27]	0%	Buxoro psixologiya va xorijiy tillar institutida 2022-2023 o'quv yili uchun qabul jarayonlari 2022-yilning 6-iyunidan — 10 iyuligacha davom etadi. — Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti http://buxpxti.uz/?page_id=1789	Internet plyus qidiruv moduli
[28]	0%	http://e-library.nam du.uz/85%20%D0%A1%D0 %B0%D0%BD%D1%8A%D0%B 0%D1%82/puflama_zarb li_cholgu_izhrochili gi_damli_cholgular.p df http://e-library.namdu.uz/85%20%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8A%D0%B0%D1%82/puflama_zarbli_cholgu_izhrochiligi_damli_cholgular.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[29]	0%	http://e-library.nam du.uz/85%20%D0%A1%D0 %B0%D0%BD%D1%8A%D0%B 0%D1%82/puflama_zarb li_cholgu_izhrochili gi_damli_cholgular.p df http://e-library.namdu.uz/85%20%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8A%D0%B0%D1%82/puflama_zarbli_cholgu_izhrochiligi_damli_cholgular.pdf	Internet plyus qidiruv moduli
[30]	0%	http://e-library.nam du.uz/85%20%D0%A1%D0 %B0%D0%BD%D1%8A%D0%B 0%D1%82/O%60zbek%20m illiy%20cholg%60usoz lik%20tarixi.%202005 .%20A.%20Liviyev.pdf http://e-library.namdu.uz/85%20%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8A%D0%B0%D1%82/O%60zbek%20milliy%20cholg%60usozlik%20tarixi.%202005.%20A.%20Liviyev.pdf	Internet plyus qidiruv moduli

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

CHOLG'U IJROCHILIGI VA ANSAMBLI

o'quv qo'llanma

Guliston- 2023

Mazkur o’quv qo’llanma madaniyat tizimidagi oliy o’quv yurtlarining talabalari, ixtisoslashtirilgan san'at maktablariga hamda bolalar musiqa va san’at maktablari uchun mo’ljallangan.O’quv qo’llanmada milliy cholg’u sozlarimizning paydo bo’lish tarixi, o’zbek xalq kuylari, milliy mumtoz maqomlarimiz,o’zbek va chet el bastakorlari hamda kompozitorlari asarlari kiritilgan.

Mas’ul muharrir: Hasan Abduvohidov- Sirdaryo viloyat “Yangi Sirdaryo”gazetasining muxbiri

Muallif: **Z.J. Xomidov**-Guliston davlat universiteti “Musiqiy ta’lim ” kafedrasi katta o’qituvchisi

Taqrizchilar: **Sh.N.Raximov**-Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ijrochilik mahorati va madaniyati”kafedrasi dotsenti

R.N.Ergashev-Guliston davlat universiteti dotsenti,pedagogika fanlari nomzodi

O’quv qo’llanma Guliston davlat universitetining O’quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma №___ «____»_____ 20203-y.)

Annotatsiya

“Cholg‘u ijrochiligi va ansambli” fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari O‘zbek xalqininig sevimli cholg‘ularimiz asosida asrlar mobaynida insonlarga ma’naviy meros sifatida xizmat qilib, uning kelib chiqishi eramizdan avval 3000-yillik tarixga borib taqaladi. Ushbu davrdan tortib bizning davrimizgacha ustoz- shogird tizimiga kelib yetgan turli milliy va mahalliy musiqiy san’atimiz bugungi kungacha kelib yetganligi bilan, ayrim milliy cholg’ularimiz kelib yetmagan.

Ushbu o’quv qo’llanma DTS talablari va jahon kompozitorlarining eng sara asarlari va ma’naviy musiqaga ma’qul keladigan yangi zamonaviy kompozitor asarlari bilan qamrab olingan;

-Milliy cholg’ular tarixi va klassifikatsiyasi;
-Gammalar va shtrixlar;
-Amaliy mashqlar va etyudlar;
-Yakka ijroda asarlar majmuasi;
-Fortepiano jo’rnavozligida ijro etiladigan asarlar;

Talabalarni mustaqil ravishda mashg‘ulotlar olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijrochilik dasturi mahoratlarini chuqurlashtirish va texnikalarini yanada mukammallashtirishda qaratilgan.

Mazkur o’quv qo’llanma 60111300-bakalavr yo’nalishininig talabalariga mo’ljallangan bo’lib, zamonaviy kompozitorlarning yangi asarlari va innovatsion texnologiyalarda o’z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir.

Annotation

Priorities for the development of the science of” Instrumental Performance and ensemble " served as a spiritual heritage for mankind for centuries, based on our favorite instruments of Uzbek people, the origin of which goes back to the 3000-th year BC. Although the various national and local musical arts that came to the teacher - apprentice system from this period to our time have survived to this day, some of our national instruments have not survived.

This tutorial is covered by the requirements of the DTS and the most outstanding works of world composers and new contemporary composer works that boast spiritual music;

- History and classification of National Instruments;
- Gammas and barcodes;
- Practical exercises and etudes;
- A complex of works in solo performance;

- Works performed in piano accompaniment;

It is aimed at the formation of skills for independent training of students and the deepening of the skills of the execution program and further perfection of their techniques.

This tutorial is aimed at students of the 60111300th Bachelor's degree and is significant in that they have found a solution in new works of modern composers and innovative technologies.

Аннотация

Приоритетные направления развития науки ”Инструментоведение и ансамбль " на основе любимых инструментов узбекского народа на протяжении веков служили людям духовным наследием, истоки которого восходят к 3000- году до нашей эры. С этого периода до наших дней дошли различные национальные и местные музыкальные искусства, дошедшие до системы учителя - ученика, некоторые из наших национальных инструментов не дошли.

Это учебное пособие охватывает требования DTS и новейшие произведения современных композиторов, удовлетворяющие требованиям большинства композиторов мира и духовной музыки;

- История и классификация национальных инструментов;
- Гаммы и штрихи;
- Практические упражнения и этюды;
- Комплекс произведений в сольном исполнении;
- Произведения для фортепиано;

Направлена на формирование у учащихся навыков самостоятельного проведения занятий и углубление навыков и дальнейшего совершенствования приемов исполнительской программы.

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата направления 60111300 и примечательно тем, что в нем нашли свое решение новые произведения современных композиторов и инновационные технологии.

KIRISH

MILLIY CHOLG’ULARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Tarixiy manbalarda yozilishicha o`sha davr cholg’u ijrochiligi san`atining o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iborat bo`lganki, har bir cholg’u ijrochisi nafaqat bir nechta turdagi musiqa asboblarini chala olgan, balki ularning o`zlari

yaxshigina xonanda bo`lib, musiqa ham bastalaganlar. Natijada soz yasovchi hunarmandlarning musiqaviy faoliyati rivojlanib maxsus musiqa asboblarini yasash ustaxonalari paydo bo`lishiga olib kelgan.Ustoz – shogird an`analari qaror topib rivojlangan. Musiqa san`atining asosiy ko`rinishlari shakllanib, cholg'u asboblarining yangi namunalari kashf etilishi ham o`sha uzoq davrlardan boshlangan.

Ma`lumki,o`zbek xalq musiqa merosi ham boshqa ko`pgina Sharq xalqlari musiqasi singari, folklor hamda og'zaki an`anadagi professional musiqa turlariga bo`linadi. Cholg'ular ham o`z navbatida, faqat folklor janrlari ijrochilari qo`lida hamda professional musiqa ijrochilari tomonidan ishlatiladigan turlarga bo`linganligini ko`ramiz. Tarixiy yodgorliklarda, jumladan, musiqiy risolalar va boshqa manbalarda esa deyarli mohir ijrochi ustoz-sozandalar ishlatgan cholg'ular o`z aksini topgan. Lekin cho`ponlar tomonidan yoki keng omma orasida folklor musiqalari ijro qilinib, tuzilishi jihatdan oddiygina bo`lgan ko`pgina cholg'ular, jumladan, suyak yoki yog'ochdan yasalgan chanqovuz va shunga o`xshagan sozlar tasviri (yoki tasnifi) san`at yodgorliklari hamda maxsus musiqa risolalarida juda kam uchratamiz. Bunday cholg'ularning ko`pchiligi biz uchun noma`lum qolganligi ham ehtimoldan xoli emas.

O`zbek xalq cholg'ulari ko`p va xilma – xil bo`lganligi uchun ularni qayta ta`mirlash nihoyatda murakkab va uzoq davom etgan jarayon bo`ldi. Bizgacha etib kelgan an`anaviy cholg'ularning o`rniga, ijrochilikning nozik va yuksak badiiy talablariga javob bera oladigan yangi, zamonaviy cholg'ular yaratila boshlandi. Bu ishga birinchilardan bo`lib, XX asrning 20-30 yillarida musiqa cholg'u asboblarini yangilashga kirishgan Toshkentlik mashhur musiqa cholg'ulari ustasi usta Usmon Zufarov (1892-1981) dutor, g'ijjak, tanbur kabi musiqa cholg'ularining turdosh oilalarini yaratishga, Matyusuf Xarratov hamda usta Ro`zmat Isaboyevlar tomonidan esa chang soziga qo`shimcha torlar o`rnatilib, ovoz jarangdorligini kengaytirishga erishildi.

XX asrning 40-yillaridan boshlab esa milliy cholg'ularimiznin yangi avlodini yaratishga O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi,professor Ashod Ivanovich Petrosyans rahbarlik qildi. U rus musiqa cholg'u ustalari V.Romanchenko,A.Kevxozyants, S.Didenkolar bilan hamkorlikda rus xalq cholg'u asboblarini yangilash tajribasidan kelib chiqib, milliy sozlarimizni yangilashga kirishiladi va anchagina ishlar amalga oshiriladi.

Keyinchalik cholg'u asboblarini yangilash va ularni

takomillashtirishgao`zbek ustalari Xirojiddin Muhiddinov (1930-1998), Abdunabi Abdug'afurov (1931), A.Tarasov (1915), V.Shtikov,

M.Turdiev kabi yosh mohir ustalar ham jalb qilinadi. Ushbu yillarda cholg'u asboblarini yangilash bo`yicha maxsus tajriba ustaxonasi keyinchalik laboratoriya tashkil etiladi. Laboratoriyada ustalar tomonidan dutor va tanbur, keyinroq g'ijjak, rubob cholg'ulari shuningdek, damli sozlar ham qayta ta`mirlana boshlandi, ularning yangi avlodini yaratishga imkoniyatlar yaratildi. Bu esa o`z navbatida milliy sozlarimizda faqat milliy musiqamiznigina emas, balki professional kompozitorlar asarlarini, shuningdek jahon xalqlari musiqasini ijro etish imkoniyatiga zamin tayyorlandi. A.I.Petrosyansning O`zbekistonda amalga oshirgan ijodiy izlanishlari natijasida cholg'ularning ovoz xususiyatlari va an`anaviy ko`rinishlari o`zgartirilib, milliy cholg'ularimiz sadosidan uzoq bo`lgan sozlarning yangi avlodi tarkib topdi. Buning evaziga o`zbek xalq madaniyati tarixida birinchi bo`lib xalq cholg'u asboblaridan ko`p ovozli orkestrni tuzishga erishildi. Akademik Qori Niyoziy aytganidek, yangilanish-bu cholg'u asboblari ovozining eshitilish sifatini yaxshilashga imkon yaratadi hamda nota bo`yicha ijro etishni osonlashtiradi. Shunday qilib, quyida ko`rsatilgan o`zbek milliy sozlarining beshta mustaqil guruhdan iborat yangi takomillashgan, barcha xalqlar musiqiy asarlarini ijro etishga moslashgan cholg'ular guruhi paydo bo'ladi. Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari, jumladan uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida amalga oshirilayotgan tub islohatlar etuk malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda xalqaro andozalar talablariga javob beruvchi pedagog kadrlar tayyorlash vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Vaholanki, ta'limning asosiy maqsadi–mustaqil va ijodiy fikrlovchi, yuksak ma'naviyat va madaniyatli, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun har tomonlama rivojlangan, kasbiy-metodik tayyorgarlikka ega bo'lajak musiqa o'qituvchi-shaxsini tarbiyalash har bir xalq va davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini barkamol shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirish, ularda ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi bo'lgan musiqani shakllantirishning dasturiy vazifalarini ruyobga chiqaruvchi o'qituvchidan o'ziga xos kasbiy-pedagogik va metodik tayyorgarlik, yuksak ijrochilik mahorati va kasbiy-pedagogik bilim talab etadi. O'quvchi-yoshlar qalbida nafosat, go'zallik, yuksak estetik his-tuyg'ularni, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish omili bo'lgan musiqa san'ati, musiqa mashg'ulotlarining barcha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ushbu jarayonni davlat ta'lim standartlari darajasida tashkil etish musiqa

o‘qituvchisidan etarli darajada kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Umumiy va kasbiy kompetensiya talablariga javob bera oladigan bunday musiqa o‘qituvchisi pedagogika oliy ta’lim muassasalarining “Musiqa ta’limi” ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichda bakalavr kadrlarini tayyorlash bilan amalga oshiriladi. Oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uni rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish, bo‘lajak pedagog kadrlarni tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biridir. Bola tarbiyasi va unga murabbiylik, ustozlik qilish sohasida xalqimiz ulkan tajribaga ega. Milliy tarbiyamiz tarixida insoniy go‘zallik va komillik g‘oyasini Al- Beruniy, Ibn-Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Jaloliddin Rumiy ilgari surgan va minglab shogirdlari qalbiga muhrlab ketgan. Ana shunday jahonga mashhur allomalarimizning boy ma’naviy merosi vorisligini sadoqat bilan davom ettirish, ilm-fan, kadrlar tayyorlash sohalarini yanada takomillashtirishda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi va uning kasb mas’uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada zamonaviy olimlar tomonidan olib borilayotgan izlanishlar u yoki bu ma’noda tahlil etishni taqqozo etadi. Ta’lim tizimini isloh qilish,aniq maqsadlarga yo’naltirilgan ta’lim- tarbiya uyg’unligini ta’minlash zamon talabiga aylanib bormoqda.Ayni bir vaqtda millatimiz istiqbolini belgilab beruvchi yosh avlodni bilimdon mutaxassis sifatida tarbiyalashning samarali yo’llari qidirilmoqda.Bugun kadrlar tayyorlash II sifat bosqichida o’quv jarayonini darslik va o’quv qo’llanmalari bilan ta’minlash dolbzarb vazifalardan biridir.

Milliy cholg`u turlarining tarixi.

1. Cholg`ularning takomillashtirilishi.

2. Cholg`u turlari

XX-asr boshlarida (1933-yil) B.M.Belyayev o`zining–o`zbek cholg`u asboblari kitobida o`zbek xalq cholg`ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish muammosini ko`tarib chiqdi. Universal nota yozish vositali sifatida,Yevropa nota yozuvi asosida o`zbek musiqa cholg`ularining tuzulishini aniqlashni taklif etdi. Natijada, bu borada zamonaviy ijrochilik talablariga javob beradigan cholg`u turlari paydo bo`la boshladi. Chang, g`ijjak cholg`ulariga

qo`shimcha torlar qo`yildi. Usta Usmon Zufarov ko`plab dutor, tanbur, g`ijjaklarni turdosh turlarini yaratdi.

Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustiga uzoq ish olib bordi. Natijada changning yuqori registrini qo`shimcha torlar va haraklar hisobiga kengaytirdi. Usta Usmon Zufarov va Yunus Rajabiy hamkorligida dutor bas, g`ijjak bas, g`ijjak alt namunalari yaratildi va orkest tarkibiga kiritildi. Shu davrda musiqa cholg`ularini yasash uchun maxsus ustaxonalar ochila boshlandi. Namanganda usto Ro`zimat Isaboyev, Buxoroda usta Hoji ota, usta Tohirjon Davlatov, usta Najmiddin Nasriddinovlar, Toshkentda qo`shnay, surnay cholg`ularini taniqli sozandalar Xayrulla Ubaydullayev, usta Qayum surnaychilar takomillashtirdilar.

A.I.Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh ustalar birlashib, Toshkent Davlat musiqa bilim yurtida o`quv cholg`u orkest sinfida yangi cholg`ularni sinab ko`rishadi.

1940-yillarda xalq cholg`ularining xromatik yarim tovushqatoriga ega 12 bosqichli turlari ancha ko`paydi. 50-yillarga kelib sinov tajribaxonasida Qirg`iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Qoraqalpog`iston xalq musiqa cholg`ulari ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi.

O`zbek xalq cholg`u turlari tavsifi:

1. Doira. Ilmiy tadqiqotlar dastlabki cholg`u asboblari paydo bo`lishini eramizdan avvalgi XII ming yillikka bog`lashadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg`ular paydo bo`lgan. Bular nog`ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir.

Doira iborasi ba‘zan dapp, childirma, chirmanda deb yuritiladi, ijrochini esa dappchi-childirmachi, Buxoroda doiradast, Farg`onada chirmandachi, Samarqandda doirachi deb yuritiladi.

Doira

Doira: oddiy aylanma shaklda, diametri taxminan 400 mm, bo`lgan, gardishini uzum zangidan qilingan, doira gardishiga buzoq yoki baliq, ba‘zan toy terisidan qoplanadi. Gardishga qirqqa yaqin xalqachalar taqiladi. Ular shing`iroq, shilshila deb yuritilib ijrochi qo`shimcha sado beradi.

Doirada 2 ta asosiy tovush bor. Biri past –bum, ikkinchisi baland –bak, ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush –bakko (tak-tak) yoki (bak-bak) –takka deb yuritiladi. Agar taktlar o`rtasida pauza kelsa –ist so`zi qo`llanilgan. Baka - bum - bak – ist – baka - bak. 30 yillardan so`ng doira usullari, ya‘ni –bum chiziq ostiga,bak esa chiziq ustigayozilib ijro etiladigan bo`ldi.

Nog`ora

**Nog`ora:** Nog`ra sopoldan yasalgan bo`lib, ustiga echki yoki kiyik terisi qoplanadi. Ko`pincha ikkitosh birga chalinadi, ikkalasi bir- biridan kvarta soziga farq qilishi lozim. Nog`oro aniq balandlikka ega emas, baland tovush bak, past bum, asosan ikkita ingichka cho`p bilan urib chalinadi. Nota yozuvida –bum chiziq tagida, bak chiziq ustida yoziladi. Surnay chalganda usulni nog`ora bilan ushlaydilar.Nog‘ora — urib chalinadigan musiqa asbobi. Nog‘oraning ko‘p xili mavjud.

Kosasi tuvaksimon bo‘ladi. Yog‘och va sopoldan yasaladi.Ustiha yvon terisi bilan qoplanadi.Qo‘shnog‘ora karnay va surnaylar bilan qo‘shilib o‘zbek milliy ansamblini tashkil etadi. Hozirgi kunda ham bu asboblar to‘yu tomoshalarda keng qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda nog‘oraning do‘l nog‘ora, rez nog‘ora va ko‘s nog‘ora kabi turlari bor. Do‘l nog‘ora yo‘g‘on tovush chiqaradi va diamtetri 60 sm cha bo‘ladi. Rez nog‘oraning tovushi ingichka bo‘ladi va diamtetri 20-30 sm bo‘ladi. Ko‘s nog‘oraning diamtetri 30-40 sm bo‘ladi va shuning uchun rez nog‘oranikidan yo‘g‘onroq, do‘l nog‘oranikidan ingichkaroq tovush chiqaradi.

Safoyil

Safoyil:- musiqa asbobi Xitoy, Uyg‘ur xalš cholg‘u asbob sifatida keng tarqalgan musiqa cholg‘usidir. Safoyil cholg‘usining ko‘pincha raqsona, marshona kuylarda uchratish mumkin. Uyg‘ur xalq raqslarida ham keng qo‘llaniladigan musiqa cholg‘usi hisoblanadn.

O‘zbekiston va Tojikistonda bu cholg‘u asbobi keng qo‘llanilib kelmoqda. Safoyil musiqa asbobi, tuzilishidan shiqildoqli urma zarbli cholg‘u asbobi guruhiga kiradi. Safoyil ikki bo‘lak qattiq yog‘och kaltakchasidan iborat bo‘lib, bu kaltakcha mayda temir halqachalar taqilgan katta temir xalqachaga o‘rnashtiriladi.

Safoyilni silkitib yelkaga urib shovqinli, turli xil murakkab tovush chiqarishadi. Ikkita kaltakchasini uzunligi 40[illegible] mm ni tashkil etadi. Safoyil cholg‘uchisi yelkaga urib va havoda tebratib har xil kerakli usullarni chiqaradi.

"Soqiynoma" va "Qashqarcha" kuylarida ham safoyil cholg‘usi ishlatilib, ritm berib, kuchli hissani tovush bilan yetkazib beradi.

Qayroq

Qayroq:-O‘rta Osiyo xalqlarining o‘rtasida keng tarqalgan urma zarbli musiqa asbobi hisoblanadi. Ma‘lumotlarga qaraganda qadimda saroy marosimlarida bo‘ladigan bazmlarda qayroq ijrosi ko‘p ishlatilgan. Asosan bu cholg‘uni ayollar ijro etishgan.

O‘zbekistonda jumladan Xorazm va Buxoroda qayroq cholg‘usini ko‘p ishlatadilar. Raqslarda ijro etiladigan qayroq cholg‘usi, yapaloq, tekis qilib silliqlangan to‘rtta toshdan iborat bo‘ladi. Ijrochi har bir qo‘liga bir juftdan ushlab, qayroqlarni silkitib yoki titratib har xil kerakli usullarni beradi. Qayroqda biror kuy, raqs yoki ashula usulini (ritmini) ijro etish paytida, ijrochi har xil milizm ya‘ni milliy bezaklardan foydalanadi.

Odatda qayroqni raqs tushuvchi o‘zi chaladi. Raqqos yoki raqqosa qayroqni bir-biriga urilishidan chiqqan ritmik tovushni o‘z raqsiga jo‘r qiladi. Qayroq cholg‘usida ijro etiladigan kuylardan: «Qayroq o‘yini», «Norin-norin», «Xorazm lazgisi» va shunga o‘xshash raqsona kuy qo‘shiqlardir.

Chang

Chang: Ko`hna va qadimiy cholg`ulardan. Forobiy asarlarida o`sha davrdagi changning 15 ta tori bo`lganligi aytiladi. XVII asrda yashab ijod qilgan musiqashunos olim Darvesh Ali Changchiy bu sozni mukammal ijrochisi bo`lgan.

Tarixda chang cholg`usining juda ko`plab namoyondalari bo`lgan. Chang cholg`usidan o`zbek, tojik, uyg`ur va rus xalqlari ham keng foydalandilar. Ruslar uni –Simbal deb atashadi. U tut, yong`oq, o`rik yog`ochlaridan yasaladi.

Changning quloqlari 76 ta bo`lib, u chang korpusining o`ng tomoniga o`rnatiladi, pardalari xromatik yarim tondan iborat. Changni chalish uchun ishlatiladigan cho`p g`arovdan yoki qamishdan ishlanib, uchiga rezina o`rnatiladi.



Ud: Juda qadimiy cholg`u sozlaridan. Ud arabcha so`z bo`lib, bayram, to`yu tomoshani, xursandchilikni ifodolovchi –iyd iborasining sinonimidir. Udning dastlabki nomi Barbad bo`lganligi ham ayrim manbalarda ko`rsatiladi. Barbad ikki so`zdan iborat bo`lib, bar-qomat, bad-o`rdak ma`nolarida ishlatiladi. Uning eng takomillashgan shakliga ud deyiladi.

Qadimiy Udlar ikki torli bo`lib, zir va bam deb nomlanadi. Bam pastdagi, zir yuqoridagi ingichka tor. Keyinchalik uch, to`rt torli bo`lgan, Forobiy unga beshinchi torni o`rnatgan. Ud (arab.qora daraxt) torli mezrobli qad. musiqa asbobi. Arab, turk, fors, Kavkaz (ozarbayjon, arman) va Markaziy Osiyo (o‘zbek, tojik) xalqlarida keng qo‘llaniladi. Katta, noksimon va yupqa qopqokli kosaxona, kalta va enli dastaga ega.

Tovushi yumshoq va mayin. O‘zbekistonda musiqa kollejlari va O‘zbekiston davlat konservatoriyasida Ud. sinflari mavjud. U., asosan, jo‘rnavoz (mumtoz musiqa ansambllari) va yakkanavoz soz sifatida qo‘llaniladi.

Rubob

Rubob: O`rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyatida keng qo`llaniladi. Tut, chinor, o`rik yog`ochlaridan ishlanib, kuchli jarangdor tovush beradi. Qadimgi rubob pardalari ichakdan bo`lgan. 1936-yildan boshlab po`lat simdan (5-simi ichakdan) chalinadi. Rubob asbobi bir necha turlardan iborat. Bular rubob prima, rubob sekunda, rubob tenor deb nomlanadi.

Qashqar rubobining uzunligi 80—100 sm, cho‘michsimon kosasi tut va boshqa qattiq daraxt g‘o‘lachalaridan o‘yib yasaladi va ustiga teri qoplanadi. Dastasi uzun, uchi orqasiga qayrilgan bo‘lib, kosadan boshlanadigan joyida qo‘chqor shoxiga o‘xshash 2 ta gajagi mavjud. Dastasidagi pardalari (19 tadan 23 tagacha, oldin ichakdan, hozir metalldan qilinadi) xromatik tovushqatorni tashkil qiladi. Qashqar Rubobining 5 ta tori, odatda, kvarta kvinta oralig‘ida sozlanadi. Diapazoni 3 oktavaga yaqin. Tovushi jarangdor.

Afg`on rubobi

**Afg`on rubobi:**Hindiston,Pokiston,Eron,Afg`oniston, O`zbekiston, Tojikistonda keng tarqalgan. Nomlanishiga ko`ra Tojik rubobi, Buxoro rubobi, Badaxshon rubobi ham deyiladi. Ushbu cholg`uning usti teri bilan qoplangan, katta chuqur o`yma kosasining toraytirilgan, yon tomonlaridan yuqori qismiga yupqa qopqoq yelimlangandir. Odatda beshta chalinadigan asosiy pay tor, hamda yon quloq (go`shak) larga tortiladigan 10-11 ta aks-sado beruvchi sim torlarga ega bo`lib, asosiy torlar o`zaro kvartaga sozlanadi. Aks-sado beruvchi simlar esa pog`onama-pog`ona ko`tariluvchi sekundalarni tashkil etadi. Torlari simdan va ichakdan bo`laddi.

Tanbur

Tanbur: manbalarda yozilishicha yunoncha so`zdan olingan bo`lib, tan – yurak, dil, bur tirnovchi, qitiqlovchi degan ma‘noni beradi. Asrlar osha ota-bobolarimizdan bizning davrimizgacha yetib kelgan bir qator musiqiy cholg`ular orasida tanbur o`zinig sehrli, maftunkor, dillarga orom beruvchi sadosi, xush kayfiyat baxsh etuvchi qudratga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Tarixiy manbalarga murojaat etib tanburning nafaqat o`zbek, tojik, uyg`ur xalqlarida,shuningdek, qo`shni mamlakatlar Afg`oniston, Eron, Turkiya, shimoliy Hindiston hamda ayrim Arab mamlakatlarida ham azaldan mavjud bo`lganidan voqif bo`lamiz. Ana shu mamlakatlarda tanburning turli shaklda eramizdan avvalgi birinchi asrdanoq keng ishlatib kelganligini qadimiy yodgorliklar,turli arxeologik topilmalar, minyaturalardagi tasvirlar hamda ko`pgina yozma manbalar tasdiqlamoqda. Zamonasining ulug` mutafakkiri va olimi Abu Nasr Muhammad Al-Farobiy o`zining kitobul musiqiy Al-Kabir- (musiqaga doir katta kitob)
asarida tanbur sozini o`sha davrlarda, ya‘ni X-asrda xurosonli va bog`dodli kabi turlari mavjud bo`lganligi haqida ma‘lumot berilgan.
Keyinchalik XV-asrda Samarqandda Amir Temur saroyida uzoq yillar davomida o`zining benazir san‘ati bilan xizmat qilib dovrug` qozongan sozanda Xo`ja Abduqodir tanburining turkiy turlari bilan bir qatorda Nay tanbur deb nomlanuvchi kamonli turi mavjud bo`lgan. Mazkur cholg`u hozirda- Sato deb ataladi.

Tanbur uzun va yo`g`on dastasiga qalin pardalar bog`langan hamda yupqa-yo`g`on qoplamali noksimon kosaxonasi ustidagisi maxsus xarrakkdan o`tgan uch to`rt simli noxun bilan chertib chalinadigan cholg`u hisoblanadi.

Tanbur sozining qadimiy turlaridagi torlar XVI asrga qadar ipakdan bo`lganligini, XVII asr musiqashunos olimi Darvesh Ali Changiy o`z risolasida bayon etib, uning ta‘kidlashicha mohir ijrochilar tanbur tovushining tembri yanada jozibador bo`lishi uchun kumush va mis simlardan foydalanishgan. Mazkur cholg`u keyinchalik bizning davrimizdagi kabi ko`rinishga kelgan. Bu tanbursozining davrlar o`tishi bilan yanada takomillashganidan dalolat beradi. Tanburning pardalardagi baland-pastlik darajasini ikki xil Bas va Skripka kalitlarida notalarda ifoda etganda yozilganiga nisbatan tanburda bir oktava past eshitiladi. Shashmaqomda tanbur turliicha ya‘ni buzruk, dugoh, segoh, iroq maqomlarida kvartaga, rost maqomida esa butun parda katta sekunda sozlanadi.

Bu maqomlarga mos keladigan tovushqatorlar quyidagicha:

Tovushqatorlar bir oktava yuqori berilmoqda. Tanburning boy tasviriy imkoniyatlarini hozirgi avlod vakillariga meros qilib uzluksiz davomiyligini ta‘minlangan san‘atimiz fidoiysi Otag`iyos Nazirov, Matyoqub Xattorov, Sultonxon Xokim, Shaborat Qori Siroj, Usta Toir, Ro`zimatxon Asadqori Lutfullayev, Fazliddin Shaxobov, Shonazar Soxobov, Boboqul Fayzullayev, Maxsudxo`ja Yusupov, Yoqub Davidov kabi mashshoqlarning nomlari yoshi ulug` musiqa ixlosmondlarining yodlarida va qalblarida muhirlanib qolgan desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. Respublikamizning turli vohalarida yashab ijod qilgan bu ajib simolar ijrochilik san‘‘atida o`ziga xos betakror uslub hamda maktab yaratganlar.

Tanbur mumtoz she‘riyat namayondalari: Lutfiy,A.Jomiy, A.Navoiy M.Bobur, Mashrab, Ogahiy, Furqat, Xislat, Xurshid, Habibiy va boshqa ko`plab g`azaliyot ahlining qalb ardog`ida bo`lganligini ularning ijodlari orqali anglaymiz. Barcha mumtoz musiqiy merosimiz namunalari xususan maqom ashulalar azaldan yillar davomida tanbur jo`rligida atoqli hofizlar tomonidan ijro etib kelingan va buan‘‘ana hozir ham davom etayotganini alohida ta‘kidlab o`tishshimiz joyizdir. Tarixga nazar tashlab Ota Jalol Nosirov, Mulla To`ychi Toshmuhammedov, Levi Boboxonov, Sodirxon Hofiz, Shorahim Shomurodov, Shoynazar Sohibov, Berkinboy Fayziyev, Xo`raxon Sultonov, Maruf Xo`ja Boxodirov, Shoqosim Shojalilov, Rasul qori Muhammadiyev, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotamov kabi atoqli maqomchi hofizlar uchun tanbur doimiy jo`ranavoz soz bo`lganligini voqif bo`lamiz.

Har qanday kasbu-kor, ilm-ma‘rifat, madaniyat va san‘tning rivoj topishi shakllanishi avlodlari shajarasi zanjirining uzulmasligidadir. Jumladan musiqa ijrochiligi san‘ati ham bevosita avloddan- avlodga sayqal topib o`tib kelayotgan buyuk ne‘matlardan biridir. XX asrda yashab ijod qilgan mashxur mumtoz tanburchi sozandalarning tabarruk nomlari tarixzarvaraqlariga muhrlab qolingan. Jumladan: Risqi Rajabiy, Ma‘rufxon Toshpo`latov, Jo`ra Saidaliyev, Maxsud xo`ja Yusupov, Abdumutal Abdullayev Rasul Qori Mamadaliyev kabi sozandalardan meros qolgan ijro asarlari ma‘‘naviy boyligimiz hisoblanadi.

Ustoz Turg`un Alimatov an‘anaviy ijrochilikda musiqiy asarning ta‘sirchanligi inson ruhiyatiga xushkayfiyat baxsh etishi, ma‘naviy ozuqa berishi, kuyning milliy ijro bezaklari bilan to`laqonli ifoda etishidir. Uning uchun sozandayuksak musiqiy did va mahoratga ega bo`lishi lozim. Jumladan tanbur sozi ijrochiligida keng qo`llaniladigan turli nola, qochirim zarb kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi yetuklikni ta‘‘minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda tanbur sozi ijrochiligida yorqin yulduz bo`lib o`zining qalb qo`ri, sehrli barmoqlari bilan chertgan sozdan xushnavo taratib yuraklarni zabt etgan Tillo,Soxibiylarni ijro etgan.

O`zbekiston xalq artisti: Professor Turg`un Alimatovni o`zbek milliy musiqa ijrochiligida betakror uslub, maktab yaratgan san‘at arboblardan biri desak aslo mubolag`a bo`lmaydi. San‘atimizning rivoj topishi, shakllanishi avlodlar shajarasi zanjirining uzilmasligidadir.

Dutor

Dutor: Dutor tojikcha so`z bo`lib, ikki tor degan ma‘noni bildiradi. tojik, uyg`ur, turkman, qaraqalpoq xalqlarining eng sevimli cholg`usi. Kvarta, kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Bizda qo`llailadigani dutor-alt deb ataladi. Kichik oktava lya, mi notalariga sozlanadi. Bunga o`xshash cholg`ularni qozoqlarda do`mbra, qirg`izlarda qo`biz deb ataladi. Dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog`langan diatonik tovushqatordan iborat dutorlar xalq dutorlari deb aytiladi. Dasta va kosa qismlardan iborat, ularni birlashtiruvchi qismi bo`g`iz deb ataladi. Kosasi o‘yma va qoburg`alarning birlashganidan yasalishi mumkin. Uning dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, dutor kontrabas turlari hozirda musiqa amaliyotida qo‘llaniladi.

Qonun

Qonun:- yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlari cholg‘usi hisoblanadi. Xususan, qonun cholg‘usi Forobiy tomonidan musiqa nazariyasining qonuniyatlarini ifoda etuvchi cholg‘u sifatida ixtiro etilgani haqida ma‘lumotlar bor. Bu cholg‘u Armaniston,Ozarbayjon,Turkiya,Sharqiy Turkiston markaziy Osiyoda keng ishlatilgan.

XVII asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan **«Risolayi musiqiy»** da qonunning qadimiy cholg‘u asboblaridan ekanligi qayd qilinadi. Bu cholg‘u bizda XX asrning 30-yillardan boshlab ishlatilmadi va nihoyat 1978-1980- yillarda mohir sozanda,O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyev tomonidan yanada qaytadan o‘lkamizga olib kelindi va ishlatila boshlandi.

Cholg‘ular haqidagi kitobning arfaga bag‘ishlangan bo‘limida, Forobiy eslatgandek **«Ma’zif»** cholg‘usi ovozining yo‘nalishi jihatidan arfaga yaqin, sadosi ochiq torlarning tebranishi orqali hosil bo‘ladi. Safiuddin Urmaviyning XII asr yozishicha, ikki turdagi qonun mavjud bo‘lgan.

Hozirda qo‘llaniladigan qonun ko‘p torli, yassi sathli, trapsiya ko‘rinishdagi cholg‘udir. Uzunligi 800-900 mm, eni 380-400 mm bo‘lib, chinor, tut, yong‘oq, o‘rik daraxtlari yog‘ochidan tayyorlanadi.

G'ijjak

**G`ijjak:** Kosasi qovoqdan, kokas yang`og`idan yasalib, ichi kovak qilib o`yilgan. Kosasi ustiga baliq terishi va pufak qoplangan. Kosasining pastki qismiga tayoqcha o`rnatilib, ijrochi uni tizzaga qo`yib, o`tirgan hamda chalgan. Dastasi dumaloq bo`lib, kosaga yaqinlashib borgan sari kengaytirib ishlangan. Hozirda asosan 4 ta tori joriy qilingan. 4-tor kichik oktava sol, 3-tor 1-oktava re, 2-tor 1- oktava la ga va 1-tor 2- oktava mi ga sozlanadi. Turlari – g`ijjak alt, g`ijjak bas, g`ijjak kontrabas.

Qo'biz

**Qo`biz:** Torli kamonchali cholg`u tori 2 ta bo`lib, har bir tori bir to`plam qildan iboratdir. (ot quyrug`idan olingan). Qozog`istonda, Qirg`iziston, Turkmaniston, Qoraqalpoq xalqlarida keng tarqalgan.

Sato

Sato: Tashqi ko‘rinishdan tanburga o`xshaydi. Kosasi tut, yong`oq-o`rikdan o`yib yasaladi. Uni noxun bilan chalsa ham bo`1adi. Asosiy torlari 3 ta, ba‘zan 4 ta bo`lib, bu torlar metal misdan iborat bo`ladi.

Nay

Nay: Tuzulishiga ko`ra barmoqlar bilan berkitilgan 6 teshikcha, diatonik tovushqatorga ega bo`lib, hajmi 1-oktava lyadan, 4-oktava re gacha. Notalar skripka kalitiga yoziladi.

Surnay

Surnay: Uning hann chap va o`ng qo`1 barmoqlari bilan yopiladigan 6 ta teshikchasi bor. 7-teshik esa pastki tomonda bo`lib, chap qo`lning bosh barmog`i bilan bekitiladi. Hajmi kichik oktava lya dan 2-oktava mi ga qadar. Ovozi baland bo`lib, asosan to`y- tomosholarda ijro etib kelinadi.

Qo`shnay

**Qo`shnay:** Ikki qamish naychadan iborat bo`lib, ularga maxsus tilcha o`rnatiladi. Chalishda ikkita naycha bir xil puflanadi, har ikkala naychada joylashgan 7 ta teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi 1-oktava rye-dan 2-oktava sol gacha.

Karnay

Karnay: Tuzilishi ikki, uch bo`lakdan iborat bo`1adi. Uzunligi 2 metrdan ortiq, puflab chalinadigan qismi oxirida mayda teshikcha bor. Karnay cholg`u ijrosida tovushlar sekunda intervaliga o‘xshaydi, asosiy tovushdan yuqori sof kvinta yoki kichik septima intervali chalinadi. Asosan, bayramlar,to`y-tomosholarda doira, surnay jo`rligida chalinadi

MILLIY SOZLARIMIZDAN QASHQAR RUBOBINING PAYDO BO`LISH TARIXI.

QASHQAR RUBOBI HAQIDA MA'LUMOT

Rubob cholgusi Markaziy Osiyo xalqlari – o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholgulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobi qachon va qaerda paydo bo'lganligi hakida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay, tarixiy manbalarda «rabob», «rebab», «rubob» cholgusi haqida ayrim lavxalar uchraydi.

Xususan bularni Abu Nasr Forobiy, Abdulqodir Margiy, Darvishali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi allomalarning asarlarida kuzatish mumkin. XVI-XVII asrlarda yashagan Darvishali Changiyning «Tuxfat us-surur» («Yoshlik tuxfalari») nomli musiqaga oid risolasida uzoq va yaqin utmish cholg'ulari va sozandalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Usha davrlarda tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qubiz, g'ijjak cholg'ulari kengtarqalgan cholg'ulardan hisoblangan.

Sozandalar haqidagi ma'lumotlar orasida mashxur rubobchilarga oid ham so'z yuritiladi. Lekin bu asarlardagi rubob cholg'ulari aynan hozirgi yoki boshqa bir kurinishdagi qashqar rubobi ekanligi haqidagi ma'lumotlar uchramaydi.

Bugungi kunda uyg'ur xalq musiqa ijrochiligida rubob cholg'usining «podachi rubob», «qashqar rubob», «dulon rubob» va «bas rubob» deb nomlangan turlari keng qullanilmoqda.

Uyg'ur qashqar rubobi - bu xalqning eng ommalashgan cholg'usi sifatida yirik shaharlardan - to kichik qishloqlargacha tarqalgan. Uning birinchi tori 1-oktava do notasiga sozlanib to'rttadan oltitagacha rezonator torlari mavjud.

Dulon rubobi - «kumul rubob» deb ham yuritilib, asosiy uchta tori: lya-re-lya, lya-mi-lya tarzida sozlanadi. Bundan tashqari o'ntagacha rezonator torlari bo'ladi.

Bas rubobi esa: re-lya-re, re-sol-re notalariga sozlanib orkestrlarda keng qo'llaniladi. Bulardan tashqari uygurlarda rubobning 8 torli turi ham mavjudligi haqida ma'lumotlar bor. Ma'lumotlarga haraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham O'zbekistonda bu cholg'u kam uchragan va dastasiga ichak bog'langan diatonik tovushqatorli cholg'ulardan biri bo'lgan. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha 1936 yili Farg'ona vodiysining sulim Shoximardon qishlog'ida bo'lib o'tgan xalq saylida mashxur rubobchi – O'zbekiston xalq artisti, bastakor Muxammadjon Mirzayev (1913-1999)

Qashqarlik bir sozandadan rubob cholg’usini xarid qiladi va Toshkentlik Usta Usmon Zufarov (1892-1981) bilan birga bu cholg’uni qayta takomillashtirish natijasida rubobning menzurasi uzaytirilgan, dastasi latun qalamchalar bilan pardalarga teng bo’linib, hozirgi kurinishdagi rubobni yaratadilar.

Qashqar rubobi - o`zbek xalq cholg’u sozlari ichida alohida o`rin tutadi. Bu cholg’u asbobi o`zining jarangdor, tiniq ovozi bilan inson qalbiga yaqinligi, o`rganish va chalish jihatidan bir muncha qulaylikka ega ekanligi bilan xalqimizning sevimli sozlaridan biriga aylanib qolgan. U cho`ziqsimon kosa va ikki shoxli uzun dastadan iborat bo`lib yarim doira shaklida o`yilgan.Kosaxonasining ustki qismi teri bilan qoplangan bo’ladi.

Qashqar rubobi 3 turga bo’linadi:

1.Qashqar rubobi (an’anaviy)-O’zbekiston,Tojikiston va Qashqarda (usha erdan kelib chiqqanligi uchun ham qashqar rubobi deb ataladi) keng tarqalgan cholg’udir.Uning shakli dumaloq baliq (laqqa baliq)terisi tortilgan o’yma kosadan uzun dasta hamda orqaga qayrilgan bosh qismidan iborat.Bosh qismida besh dona yog’och quloqlar o’rnatilgan bo’lib,ularga 1 dona shoyi,5 dona kumush torlar tortilgan.

Kosaxonaning dasta bilan joylashgan joyida boshqa cholg’ularda uchramaydigan ikki dona shox mavjud.Ba’zi bir ijrochilar bu shoxlarni qashqar rubobida ijrochiga qulaylik yaratish uchun yasalgan desa,ba’zi birlari esa aksincha shunchalik cholg’uga bezak berish uchun deb takidlashadilar.

Qashqar rubobida tovush(ibonitdan yasalgan)mizrob bilan torlarni chertish orqali hosil qilinadi.Dastada pardalar ichak bilan bog’langan. Bu cholg’uda asosan o’zbek xalq kuylari va maqomlari ijro etiladi.Eng ko’p qo’llanadigan zarblar va ijro usullari:tremolo,staccato,pitsikato,arpedjio.

U.Zufarov tomonidan 1947-yili yasalgan.Uning og’irligi 1300 gr,uzunligi 975mm,eni 185 mm.

Qashqar rubobi
(an’anaviy)

2.Qashqar rubobi (konsertlarda ijro etiladigan) – zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan qashqar rubobining ikki xil turi mavjud bo’lib,ulardan birinchisining kosasi o’yma ravishta,ikkinchisiniki esa qovurg’ali qilib yasaladi.

Bu cholg’u tashqi ko’rinishidan an’anaviy rubobga o’xshaydi.Uning kosasi o’yma bo’lib,baliq terisi bilan qoplangan.Dastasi uzun va orqaga qayrilgan katta bosh qismidan iborat.An’anaviy ko’rinishidan farqi shundaki,bu rubobda bog’langan pardalar o’rniga xromatik tovushqatorga asoslangan latun pardalar o’rnatilgan.Teri deka ustida torlarni ushlab turish uchun yog’ochdan yasalgan xarak mavjud.Torlar kosa qismida maxsus ilgaklarga ilingan,bosh qismida esa yog’ochdan (o’rik daraxtidan)yasalgan quloqlarga taqilgan.

Tovush cholg’uda mizrob bilan torlarni chertish natijasida hosil bo’ladi.Rubobda eng ko’p qo’llanadiganzarblar:yakka zarb,qo’sh zarb,zarbi parron,rez,bilak zarbi,teskari zarb va ufor zarbi.Cholg’u ko’proq professional ijrochilar tomonidan qo’llaniladi.

Ushbu rubob 1993-yili usta B.Inoyatov tamonidan yasalgan.Quloqlari (5)va dastasi

o’rikdan,kosaxonasi tutdan yasalgan va baliq terisi balan qoplangan.Konstruktorlar:A.Petrosyans va S.Didenko.

Qashqar rubobi
(konsertlarda ijro etiladigan)

3.Qashqar rubobi (zamonaviy)-Bu cholg’u asosan o’quv jarayoninig barcha bo’g’inlarida keng qo’llaniladi.Uning kosasi qovurg’ali bo’lib,baliq (laqqa baliq)terisi bilan qoplangan.Rubobning dastasi konsertda ijro etiladigan rubob dastasidan kattaroq,bosh qismi ham unga nisbatan ixchamroq.Yog’och quloqlari mexanik quloqlar bilan almashtirilgan.

Ushbu qashqar rubobi asosida prima rubobi,metso soprano va kichik rubob kabi boshqa turlari yaratildi.Hozirgi kunda o’quv amaliyotida prima rubobi va qashqar ruboblari keng qo’llanilmoqda.Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish jarayonida ruboblarning barcha turlari xromatik tovush qatorga ega bo’ladi.Buning natijasida ularda nafaqat milliy kuylarimiz,balki o’zbekiston kompozitorlarining maxsus asarlari hamda jahon mumtoz musiqa durdonalarining ijro etish imkoniyati

payda bo’ldi.

Usta X.Muxiddinov tomonidan zamonaviy qashqar rubobi 1969-yili yasalgan.Og’irligi 900 gr,uzunligi 910 mm,kengligi 175 mm. Konstruktorlar: A.Petrosyans va S.Didenko.

Qashqar rubobi
(zamonaviy)

Ijrochilik holati.
Rubobni to’g’ri ushlash va ijro etish yo’llari.

Ma’lumki har qanday cholg’uda ijroga urgatishdan oldin cholg’uni tug’ri ushlash, gavdani, oyoq-qo’llarni erkin tutish kabi kunikmalar o’zlashtiriladi. Bu kunikmalarning tug’ri o’zlashtirilishi ijrochilik (ya’ni postanovka)ning tug’ri shakllanishiga olib keladi.

Bunda o’ng va chap qo’llarning holati, ya’ni cholg’uni tug’ri ushlash, dastani tug’ri tutish, mizrobni tug’ri ushlash kabi elementlarning bir-biri bilan o’zaro munosabatda bo’lishini ta’minlash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi oldingi davri mehnat qo’rollarining kuplab topilishi uning davr sifatida ajratib kuzsatishga imkon tug’dirdi. Rubobni chalishga kirishishdan oldin uning tuzilishini bilish va uni to’g’ri ushlashni o’rganish kerak.

Buning uchun esa quyidagi ko’rsatmalarga amal qilish lozim.

1.Rubob kosasini ko’krakdan sal pastroq,o’ng qo’lning bilagi orsida qattiq siqmasdan ushlash kerak .

2.Rubob dastasini chap qo’lning bosh va birinchi barmog’i orasida erkin tutish lozim. Rubob dastasi ushlangan paytda qo’lning bosh barmog’i ikkinchi barmoqning ro’parasida turish shart.Aks holda,uchunchi va to’rtinchi barmoqlarning pardalarni bosishi qiyinlashadi va parda noto’g’ri bosiladi.

3.Rubob chalishni o’rganishdagi dastlabki mashg’ulotlarda qo’llar tez charchab qolishi mumkin.Bunday holda qo’llarni pastga tushirib,ularga bir oz dam berish kerak.Agar bu qoidaga rioya qilib chalinsa,keyinchalik ijrochining qo’llari charchamaydigan bo’lib qoladi.

4. Rubobda yakka ijro etganda tik turish va gavdani to’g’ri tutish lozim.Rubobning quloqlari o’rnatilgan qismi ijrochining yelkasi bilan baravar turishi kerak.O’zbek xalq cholg’u asboblari orkestrda,ansamblda o’tirib ijro etiladi.Bu vaqtda ijrochi stulga suyanmasdan o’tirish va unung chap oyog’I bir oz oldinda turishi shart.

Rubob kosasi gavdaning quyidagi qismlari bilan ushlanadi:

a) gavdaning kukrak qismi.
b) kosani ilmoqlar tomonidan tutib turuvchi bilakning yuqori qismi.
v) o’ng qo’lning rubob kosasini tagidan tutib turuvchi bilak qismi.

Bu uch nuqtaning har biri juda muximdir. Ular rubob kosasini pastga tushib ketmasligini va aksinchatepaga yoki yonga chiqib ketmasligini ta’minlaydi.

O’ng qo’lning tirsak qismi rubob kosasini tagidan ushlab turadi. Demak, o’ng qo’lni rubob kosasining chetiga shunday qo’yish kerakki, mizrob rubob xaragidan 7-8 sm o’zoqlikda joylashgan bo’lsin. Bunday holat aynan o’ng qo’lning pastga-yuqoriga erkin harakatlanishini va sifatli tovush hosil qilishni ta’minlaydi.

Agar mizrob xarakdan o’zoqlashib ketsa, o’ng qo’l bilak qismining qotib qolishi va tovushning qo’pol yoki yoqimsiz bo’lib qolishi tajribada kuzatiladi. Aksincha, agar mizrob (ya’ni qo’lning panja qismi) xarakka juda yaqin bo’lsa bilakdagi kuch panjalargacha etib kelmay, faqat panja qismining o’zigina

harakat qiladi. Bu esa, rubob kosasining qimirlab xarakatlanishiga va texnik imkoniyatlarning kamayishiga,natijada tovush kuchi va sifatning pasayishiga olib keladi.

Chap qo'lning dastaga to'g'ri qo'yilishi, barmoqlarning xarakatlanishi, pardalarni o'z vaqtida bosilishi toza tovush hosil qilish malakalarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Rubob dastasi bo'sh va ko'rsatkich barmoqlar o'rtasida bo'lib bunda dasta siqib ushlanmasligi, bo'sh barmoq esa ikkinchi va uchinchi barmoqlar o'rtasida turishi kerak. Bunda kaftning dastaga yopishib turmasligini doim nazorat qilish lozim va barmoqlarning oxirgi bo'g'ini albatta bukilgan bulishi va pardaga kundalang emas, balki kosa tomonga qaratilib, shu tomonga ya'ni pardaga yaqin joyda bosish maqsadga muvofiqdir.

Rubobni ushlaganda dastaning uchi elka balandligi bilan barobar bo'lgani ma'qul.

Chunki, bunday holat talaba uchun qulay va shu bilan birga chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Agar dastaning baland yoki past bo'lishi kuzatilsa, unda o'ng qo'lning holatida kamchilik bo'lishi mumkin, sababi ikkala qo'l bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Mizrob(mediator)

Rubob torlarini mizrob (mediator) bilan chertib tovush hosil qilinadi. Mizroblar shaklan xar-xil bo'lib, plastmassa yoki ebonitdan tayyorlanadi. Amaliyotda musiqa maktablarida o'qitishning dastlabki bosqichlarida asosan plastmassa mizrobidan foydalaniladi. Uning shaklan kattaroq va yumshoqligi yangi o'rganilayotganda birmuncha kuylaydir. Ebonitli mizrob albatta pishiqligi va sifatli tovush hosil qilishi jihatidan plastmassa mizrobdan farq qiladi.Mizrobni bir uchi qirrali va silliq bo'lishi kerak.Tovushlarning tekis va yoqimli chiqishi uchun mizrobni charxlab silliqlash kerak.Rubob torlarini mizrob bilan chertganda o'ng qo'lning faqat panja qismi harakat qilishi lozim.Mizrob yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga chertganda tovush bir xilda tekis va silliq chiqishi kerak.Rubob chalishni o'qganishdagi dastlabki mashg'ulotlarda faqat kerakli torlarnigina chertib,tiniq va aniq tovush chiqarishga harakat qilish lozim.

Mizrobni ushlab turgan o'ng qo'l rubob xarragidan 4-6 santimetr uzoqlikda bo'lishi lozim,chunki mizrobni xarrakka yaqin tutib chertilsa,rubobning tovushi bo'g'iq,yoqimli chiqadi.

QASHQAR RUBOBINING TUZULISHI



1.Quloqlar. 2.Rubobning bosh qismi. 3.Shayton xarrak. 4.Pardalar. 5.Dasta. 6.Teri. 7.1-tor. 8.2-tor. 9.3-tor. 10.Xarrak. 11.Ilmoqlar. 12.Kosa.

QASHQAR RUBOBIDA IJROCHILIK TA’LIMI.

Qashqar rubobi ijrochilik amaliyotida juda keng qo’llanadigan cholg’u hisoblanadi. Qashqar rubobi o’tirib va turib chalinadigan sozlardan bo’lib, orkestr, ansambl ijrochiligida va yakkaxon ijrochilikda juda ko’p ko’llaniladi.

Cholg’uni yaxshi o’zlashtirish uchun ijro paytida uni to’g’ri tutish muhimdir.

Ijro paytida ijrochining tashqi ko’rinishi chiroyli bo’lishi, gavdaning, oyoq,

qo’llarning erkin tutilishi katta ahamiyatga ega (7,8-rasmlar).

Ijrochilik holatiga dastlabki mashg’ulotlardayoq katta e’tibor berish kerak. Bunda o’ng va chap qo’llarning holati, yani cholg’uni tug’ri ushlash, dastani to’g’ri tutish, mizrobni tug’ri ushlash kabi elementlarning bir-biri bilan o’zaro munosabatda bo’lishini ta’minlash eng asosiy vazifalardan biridir. Cholg’uni tutish holatidagi mavjud bo’lgan kamchiliklar ko’pincha ijrochilik mahoratining past darajada bo’lishiga hatto gavda tuzilishining notug’ri shakllanib qolishiga sabab bo’ladi.

Ijrochilik holatining to’g’ri bo’lishi ijrochiga o’zok vaqt charchamasdan chalish imkoniyatini beradi.

Bu esa o’quvchining muntazam ravishda mustaqil shug’ullanishiga yordam beradi. Agar o’quvchida ko’llarning, gavda qismlarining qotib qolishi holatlari kuzatilsa u tez charchaydi, demak davomli ravishda shug’ullana olmaydi.

Ijrochilik holati bir yoki bir necha darsda o’zlashtiriladigan jarayon emas. Tajriba shuni ko’rsatadiki, uqiguvchi uquvchi yoki talaba bilan doimiy ravishda ijrochilik holati ustida ishlash davomida uni notug’ri bo’lib qolmasligi uchun nazorat qilib borish kerak. Chunki ijrochilik holati avval yaxshi bo’lib, keyinroq bo’zilishi ham uchrab turadi. Bundan tashqari ijrochilik holati o’quvchi — ijrochining kontsert ijrochiligida, aynan yakkaxon

solist sifatida ijrochiligida cholg’u bilan hamohang harakat kilishda, musiqiy asarning mohiyatini ochib berishda va tinglovchi tomoshabinda badiiy - estetik taasurot qoldirishda asosiy omillardan biridir.

RUBOBNI USHLASH VA TOVUSH HOSIL QILISH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Rubob kosasini ushlab turishda 3 nukta asosiy tayanch vazifasini bajaradi.

Bu tayanchlar:

a) gavdaning kukrak qismi,

b) kosani ilmoqlar tomonidan tutib turuvchi bilakning yuqori qismi.

v) o’ng qo’lning rubob kosasini tagidan tutib turuvchi bilak qismi (9-rasm).

9-rasm

Bu uch nuqta juda muhimdir. Ular rubob kosasini pastga tushib ketmasligini va aksincha tepaga yoki yonga chiqib ketmasligini ta’minlaydi.

O’ng qo’lning tirsak qismi rubob kosasini tagidan ushlab turadi. Demak, o’ng qo’lni rubob kosasining chetiga shunday qo’yish kerakki, mizrob rubob xarragidan 7-8 sm uzoqlikda joylashgan bo’lsin. Bunday holat aynan o’ng ko’lning pastga yuqoriga erkin harakatlanishini va sifatli tovush hosil qilishni ta’minlaydi (10-rasm).

10-rasm

Agar mizrob xarrakdan uzoqlashib ketsa, o'ng qo'l bilak kismining qotib qolishi va tovushning qupol yoki yoqimsiz bo'lib qolishi tajribada kuzatiladi. Aksincha agar mizrob (ya'ni qo'lning panja qismi) xarrakka juda yaqin bulsa bilakdagi kuch panjalargacha etib kelmay, faqat panja qismining o'zigina harakat kiladi. Bu esa rubob kosasining qimirlab harakatlanishiga va texnik imkoniyatlarning kamayishiga, natijada tovush kuchi va sifatining pasayishiga olib keladi.

Ma'lumki, mizrob barcha mizrobli cholg'ularda tovush hosil kilishning asosiy vositasidir. Mizroblar shaklan har-xil bo'lib,

11-rasm. Plastmassa va ebonit

Amaliyotda musiqa maktablarida o'qitishning dastlabki bosqichlarida asosan plastmassa mizrobdan foydalaniladi. Uning shaklan kattaroq va yumshoqligi yangi o'rganilayotganda birmuncha qulaydir. Ebonitlar albatta sifatli tovush hosil kilishi bilan plastmassa mizrobdan afzal hisoblanadi.

Mizrobni ushlash uchun o'ng qo'l barmoqlari yarim aylana holga keltiriladi. Bunda barmoqlarning so'nggi butinlari bir tekisda bukilib, kursatkich barmoqning tirnoqqa yaqinroq joyiga mizrob qo'yiladi va bosh barmoq bilan butinlari bukilgan holda ushlanadi (12,13-rasmlar).

12-rasm

13-rasm

Aks holda mizrobni sezish va boshqarish imkoniyati yuqoladi. Ayniqsa maktab o'quvchilarida mana shu xato ko'p kuzatiladi. Bu texnik kamchiliklarga sabab bo'lib, har-xil shtrixlar va asarni dinamik jihatdan tulaqonli ijro etish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Shu kamchilikni bartaraf qilishda quyidagi uslubni tavsiya qilamiz. o'quvchi o'ng qo'lining turt barmog'i butinlari bilan erkin ushlay oladigan biron narsani, (taxminan ruchka qalinligidagi maxsus chup bulishi mumkin) ushlatib, undan keyin mizrobni kursatkich barmoqning oxirgi butiniga tirnoqqa yaqinrok joyga quyib, bosh barmoq butinlari bukilgan holla ushlanadi va sinfda o'qituvchining nazorati ostida mashq qilinadi. Bunday mashq qilinganda panjalar orasi ochilib ham yoki aksincha juda ko'p bukilib ham ketmasdan me'yorda bo'ladi va o'z-o'zidan mizrobni qo'yishga va ushlashga qulay holat yuzaga keladi.

Tovush chiqarish usuli barcha mizrobli cholg'ularda deyarli bir xil. Albatta har birining uziga xos tomonlari mavjud bo'lib bundan qashqar rubob ham holi emas. Qashqar rubobida tovush chiqarish usullarining boshqa mizrobli cholg'ulardan farqi yoki o'ziga hosligi shundan iboratki, uning dastasining uzunligi, torlarining mayinligi va jarangdorligi hamda ijro imkoniyatlarining kengligi qashqar rubobda o'zbek klassik musiqasi, maqom kuylari hamda dunyo kompozitorlari asarlari namunalarini ijro etish imkoniyatini beradi.

Tovush chiqarish usullari asosini pastga va yuqoriga uriladigan zarblar tashkil qiladi, ya'ni qashqar rubobida mizrob bilan pastga va yuqoriga zarb berib, tovush hosil qilinadi va bu zarblarning turli xil kombinatsiyalaridan tovush chiqarishning xilma-xil usullarini hosil kilishimiz mumkin.

Shu 2 ta usulni ko'rib chiqamiz.

Pastga zarb — P, yuqoriga zarb esa V — belgisi bilan ifodalanadi. Urgatishning dastlabki bosqichida uquvchiga mizrobni tug'ri ushlashni urgatilgach, albatta pastga zarb bilan chalishni urgatishdan boshlanadi. Bunda o'ng qo'l panjalari erkin harakat bilan pastga zarb beradi. Bu mashg'ulotni ochiq torlarda ma'lum vaqt davom ettirilib, keyin chap qo'l bilan eng kulay bosiladigan pardalarda davom ettirilsa, uzlashtirish

oson bo’ladi.

1-misol



2-misol



Yuqoridagi misol va shunga uxshash mashqlarni chalganda o’ng qo’l navbatdagi zarbni berishga tepaga kutarilayotganda mizrob simga tegib ketmasligi uchun aylanma harakat kilish kerakki, bu o’ng qo’lning siqilmasdan harakat qilishiga yordam beradi. Yuqoriga beriladigan zarb esa mizrobning pastdan tepaga qarab urilishi bilan hosil qi linadigan eng oddiy usullardan biri. Lekin aynan shu usulning tuliq uzlashtirilmasligi rez, triol va shu kabi usullarning ham tulaqonli chiqmasligiga va keyinchalik ham sozandalarning ijrosida tovush sifatining pastligiga, kuchsizligiga va o’z-o’zidan musiqiy asarning ijrosi tulaqonli bo’lmasligiga sabab bo’ladi.

Bunga asosiy sabab, yuqoriga urilgan zarbning kuchsizligidadir, ya’ni o’ng ko’lning pastga bo’lgan harakati kuchlirok, yuqoriga harakati esa kuchsizroqdir. Buni tenglashtirishga alohida e’tibor berish kerak. Chunki, agar yuqoriga qanchalik zarb bilan urilmasin mizrobning torga tegish nuqtasi notug’ri bo’lsa tovush notekis va sifatsiz bo’lib qolaveradi. Aksariyat hollarda o’quvchilarning yuqoriga beradigan zarblari faqat bitta simga tegadi yoki o’ng qo’lning aylanma harakat qilmasligi sababli mediator bilan simga pastdan zarb berilmay, tirnab ovoz chiqarish holatlari kuzatiladi.

Demak, yuqoriga kuchli zarb bo’lishi bilan birga pastga urilgan zarbning tovush kuchi bilan barobar tovushga erishishga asosiy e’tiborni qaratish lozim, chunki f yoki pp chalinganda ham pastga-tepaga urib chalinadi va ular ovoz kuchi jihatidan bir-biriga teng bulishi kerak. Bunga yuqorida ta’kidlaganimizdek aynan mizrobni boshqara olish bilangina erishish mumkin.

Qashqar rubobida mizrob bilan tovush hosil kilishdan tashqari o’ng ko’lning bosh barmog’i bilan torlarni urib tovush chiqarish usuli ham mavjud. Bu «pissikato» shtrixini chalish uslubidir. U asosan orkestr va ansambl ijrochiligida akkordlar hamda ayrim musiqiy jumlalarda juda yumshoq ijrolar uchun ishlatiladi.

Modomiki, qashqar rubobida va umuman mizrobli cholg’ularda tovush asosan mizrobning torga urilishi bilan hosil qilinar ekan, demak asosiy e’tibor o’ng qo’l holatiga mizrobga va uni boshqarishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

CHAP QO’L BARMOQLARI

HARAKATLARINI O’ZLASHTIRISH.

Chap qo’lning dastaga to’g’ri qo’yilishi, barmoqlarning harakatlanishi, pardalarni o’z vaqtida bosilishi toza tovush hosil kilish malakalarini o’zlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Rubob dastasi bosh va kursatkich barmoqlar o’rtasida bo’lib bunda dasta siqib ushlanmasligi, bosh barmoq esa ikkinchi va uchinchi barmoqlar o’rtasida turishi kerak. Bunda kaftning dastaga yopishib turmasligini doim nazorat qilish lozim. Dastlabki o’rganish davrida o’quvchilarda tovushning tiniq chiqmasligi kuzatiladi,

14-расм

Buning sabablaridan biri pardalarni barmoqlarning uchi bilan bosmasligidadir. Bunda barmoqlar albatta bukilgan bo’lishi va pardaga kundalang emas, balki kosa tomonga qaratilib, shu tomonga ya’ni pardaga yaqin joyda bosish maqsadga muvofiqdir (14-rasm).Rubobni ushlaganda dastaning uchi elka balandligi bilan barobar bo’lgani ma’qul. Chunki, bunday holat o’quvchi uchun qulay va shu bilan birga chiroyli ko’rinishga ega bo’ladi. Agar dastaning baland yoki past bo’lishi kuzatilsa, unda o’ng qo’lning holatida kamchilik bo’lishi mumkin, sababi ikkala qo’l bir biri bilan uzviy bog’liqdir.

Chap qo’lning to’g’ri qo’yilishini ta’minlash uchun amalda tekshirilgan qo’iyidagi usulni tavsiya kilamiz.

Birinchi torning MI pardasidan SOL pardasigacha to’rttala barmoqni yuqorida kursatilganidek qilib(14-rasm) qo’yiladi. Bosh barmoq esa 2- va 3- barmoqlar o’rtasiga joylashadi va kaftni dastaga yopishtirmagan holida bosh barmoqning uchi dastaning yuqori qirrasiga to’g’ri qilib qo’yiladi. Mana shu holat o’quvchi bilan dars jarayonida amalga oshiriladi va doimiy kuzatib borilsa, chap qo’l barmoqlarining qanday qo’yilishi bo’yicha haqiqiy tasavvur hosil bo’ladi.

Qashqar rubobida barmoqlar belgilanishi qo’yidagicha;

1-kursatkich

2-o’rta

3-nomsiz
4-jimjiloq

Chap qo’l dastaga to’g’ri qo’yilishini sodda, qiyin bo’lmagan mashqlar bilan o’zlashtirib borish kerak.



5-misol



Bu mashqlarni chalganda yuqoriga harakat paytida notani chalib bo’lgan barmoqlarni pardalarni bosib turishiga, pastga harakat paytida esa chalib bo’lgan barmoqlarning juda ko’tarilib yoki pastga tushib ketmasligiga alohida e’tibor berish kerak. Birinchi barmoq esa dastadan kutarilmasdan surilib borishi lozim. Xuddi shu xatolar amalda juda ko’p uchraydi, natijada o’qitishning yuqori bosqichlarida yirik asarlar ijro etganda, chap qo’lning notekis harakatlanishiga olib keladi.

Chap qo’l barmoqlarida uchraydigan shunday kamchiliklarni bartaraf qilishda barmoqlarning keng joylashgan usulda ya’ni katta tertsiya intervali qamrovida dastaga kuyib chalmasdan ma’lum vaqt mobaynida ushlab turish yaxshi natija beradi. Ko’pincha dastlabki o’rganish davrida faqat 1-tor ya’ni LYa- toridagi mashq va kuylar o’rgatiladi. Bu esa keyinroq boshqa torlarda notalarning joylashishini tez aniqlashda va ularning ijro etishda muammolar keltirib chiqaradi. Shuning uchun iloji boricha dastlabki davrdanoq har-xil torlarda mashqlar va kuylarni o’rgatish yaxshi samara beradi.

SHTRIXLAR VA ULARNI IJRO ETISH USULLARI.

Musiqada shtrixlar badiiy asarning moxiyatini, xarakterini va badiiy ifodaliligini ochib beradigan ijro usulidir.

Ayrim adabiyotlarda shtrix, «tovush chiqarish usuli» deb ham ataladi. Ayni bir paytda shtrixlarni har birini alohida olib izoxlaganda tovush chiqarish usuli bo'lsa, badiiy asar ijrosida esa ular majmuasi ijro usullari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Cholg'u ijrochiligi bu ijodiy jarayon. Chunki ma'lum bir musiqiy jumlani har-xil shtrixda chalib ko'rilgandan keyin usha jumlani ochib bera oladigan shtrix tanlanadi. Musiqiy pedagogika va musiqashunoslik soxasidagi izlanishlar, kompozitorlarning ijodi va umuman musiqaning rivojlanishi xozirgi zamon cholg'u ijrochiligining va shu bilan birga ijro usullarining ham rivojlanishiga asosiy sabab bo'lmokda.

Shtrix ustida so'z yuritar ekanmiz, ijrochilikda ularning ahamiyati juda muhimligini ta'kidlab utmokchimiz. O'qituvchi o'quvchiga yangi, notanish asarni o'rgatar ekan uning har bir jumlasini qanday shtrixda chalish maksadga muvofiqligi ustida jiddiy uylab ko'rishi kerak. Chunki pedagogik tajribadan ma'lumki, qashqar rubobida boshqa cholg'ular uchun yozilgan xilma-xil asarlar ijro etiladi. Demak, bunday asarlar qashqar rubobida ijro etilganda shunday shtrixlar tanlanishi kerakki, asarning ijrosida uning badiiy mohiyati zarar ko'rmasin.

Endi qashqar rubobidagi shtrixlarni birma-bir ko'rib chiqamiz. Tovush chiqarish usuli deb ataganimiz pastga va tepaga beriladigan zarblar nafaqat qashqar rubob ijrochiligida balki barcha mizrobli cholg'ularning asosiy shtrixlaridan biridir. Ular qolgan barcha shtrixlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Pastga va tepaga ham beriladigan zarblar hakida«tovush hosil qilish»bobida to'xtalib o'tgan edik.

Ma'lumki, qashqar rubobida kuychan, mayin asarlarni chalishda tremolo — ya'ni rez usulidan foydalaniladi. Rez pastga va tepaga zarb berishning tez va uzluksiz almashinishidan hosil buladigan shtrixdir. Bu usulni katta chuzimli notalarni asta-sekinlik bilan tremolo qilib chalib uzlashtirish lozim. Rezning yaxshi o'zlashtirilishi pastga va tepaga urish ko'nikmalarining qanchalik uzlashtirilishiga bog'liq. Bunda albatta o'ng qo'lning erkinligini ta'minlash kerak. Pastga va yuqoriga berilgan zarblarning bir tekisda bo'lishiga o'ng qo'lning faqat panja qismi bilan bajarilgandagina erishish mumkin. Ayrim asarlarda chap qo'l bilan torni tebratish rezning xarakterini ochib beradi. Lekin bu tebranish ma'lum me'yorda bo'lishi kerakki, shu orqali rezning mayinligiga erishiladi va aynan shu usul bilangina kuyning xarakteri ochiladi.

Rubobni o'rganishdagi dastlabki mashqlar ochiq torlarda pardalarni bosmasdan chalinishi kerak.
Mediatorni pastga chalish belgisi – ∨
Yuqoriga chalish belgisi – ∧

Mashqni va kuylarni ijro etganda shu belgilarga e'tibor berib, takt ichidagi notalarni bir tekisda shoshmasdan sanab chalish kerak.
Masalan:

Mashqlar:
1-mashq



E s l a t m a : Mashq va kuylarni ijro etayotganda notalar ustiga qo'yilgan raqamlarga e'tibor berib, notada ko'rsatilgan barmoqlar bilan chalish kerak. Agar nota ustiga «O» belgisi qo'yilgan bo'lsa, bu belgi shu notani ochiq torda ijro etish kerakligini bildiradi.

Birinchi torda





Ikkinchi torda



Uchinchi torda



2-mashq



3-mashq



4-mashq



O'n oltitalik va sakkiztalik notalarni chalish uchun mashqlar:



5-mashq



Tremoloni o'zlashtirish uchun dastlabki mashqlar

1-mashq



2-mashq



3-mashq



4-mashq



5-mashq



Nuqtali nota

Musiqa asarida nota yoki pauza yoniga qo'yilgan nuqta shu nota yoki pauza cho'zimini yarim baravar orttiradi:



Nota cho'zimini *liga* belgisi bilan ham orttirish mumkin:



Bu belgi birlashtiruvchi liga ham deyiladi.

Sinkopa

Musiqa asarida tovushning kuchli hissasi zarbini kuchsiz hissaga ko'chirish *sinkopa* deyiladi. Masalan:

Qora soch

O'zbek xalq qo'shig'i



Taktning kuchsiz hissasida paydo bo'lgan tovush takt chizig'idan keyin keluvchi kuchli hissada ham davom etishi:



Taktning kuchli hissasidagi nota, cho'zim jihatidan uning kuchsiz hissasidagi notadan qisqa bo'lishi:



Teskari zarb

Teskari zarb sharq xalqlarida uchraydigan usullardan biridir.
Misol:



Teskari zarb (aksent) «Uyg'urcha popuri» kuyining har bir taktidagi 1-4-7 notalariga qo'yilgan.

Presto



Melizm

Melizm kuy yoki ashulani nola(qochirim)li ijro etishdagi usullarining umumiy nomidir. Ular: forshlag, trel, mordent, gruppeto nomlari bilan atalib, musiqa asaridagi asosiy tovushlarga yordamchi tovush hisoblanadi. Melizmlar quyidagi asosiy tovushlar hisobiga ijro etiladi.

Forshlag

Forshlag deb kuyning asosiy tovushidan oldin keladigan, qisqa chertib o'tiladigan tovushga aytiladi. Forshlaglar turli xil bo'ladi: 1) uzun 𝅘𝅥𝅯 2) qisqa 𝅘𝅥𝅰 3) qo'shaloq 𝅘𝅥𝅯𝅘𝅥𝅯 forshlag.

Uzun forshlag o'zidan oldin turgan nota hisobiga ijro etiladi. Misol: uzun forshlagning yozilishi:



Uzun forshlagning ijro etilishi:



Qisqa forshlagning yozilishi:



Qisqa forshlagning ijro etilishi:



Qo'shaloq forshlagning yozilishi:



Qo'shaloq forshlagning ijro etilishi:

Mordentning yozilishi:



Mordentning ijro etilishi:



Gruppetoning yozilishi:



Gruppetoning ijro etilishi:



Trel

Asosiy tovushning keyingi tovush bilan tez almashinib turishi natijasida paydo bo`lgan bidratma tovushga *trel* deyiladi va u tr belgisi bilan ko`rsatiladi.

Trel asosiy notaning ustiga qo'yiladi:

Trelning yozilishi: Trelning ijro etilishi:



Eslatma Rubobda trelli tovush hosil qilish qiyin usullardan biridir. Trelni chalishdan oldin juda ko`p mashq qilish kerak, ya'ni rubob pardalaridagi ikki tovushni chalishda birinchi – ikkinchi va birinchi – uchinchi barmoqni tez-tez almashtirib harakatlantira olish lozim.

Trelli tovush hosil qilish uchun dastlabki ba'zi mashqlar:



Triol

Har xil cho'zimdagi tovushlarning teng uchga bo'linishidan *triol* hosil bo'ladi. Triol bilan chalinadigan notalar ustiga yoysimon chiziq tortiladi, bu chiziq tagiga esa 3 raqami yoziladi. Ba'zi hollarda 3 raqamining o'zigina yozilishi ham mumkin:



Tovush kuchini o'zgartiruvchi belgilar

p p	– pianissimo	– juda kuchsiz (juda sekin)
p	– piano	– kuchsiz (sekin)
m p	– metsso piano	– kuchsizroq
mf	– metsso forte	– kuchliroq
f	– forte	– kuchli
ff	– fortissimo	– juda kuchli
	– diminuendo	– asta-sekin kuchsizlantirish
	– kreshchendo	– asta-sekin kuchaytirish
sf	– sforsando	– ayrim tovushni to'satdan kuchli ijro etish

Musiqa asarini ijro etish tezligi uning *tempi* deyiladi.

Templarning ba'zi turlari va ularning yozilishi

Tempni italyancha terminlar bilan belgilash qabul qilingan:

Yozilishi	O'qilishi	Ijrochilik belgilari
Andante	– andante	– sekin-asta, shoshilmasdan
Adagio	– adajio	– og'ir-vazmin
Largo	– lyargo	– juda cho'zib
Moderato	– moderato	– shoshilmay, o'rtacha tezlikda
Allegro	– allegro	– tez
Vivo, vivace	– vivo, vivache	– jadallik bilan
Presto	– presto	– juda tez

GAMMA VA ETYUDLAR

MAJOR GAMMALARI VA ULARNING UCHTOVUSHLIGI

Lya-major

I variant



II variant



III variant



IV variant



E s l a t m a Hamma gammalar yuqoridagi I, II, III, IV variantda chalinishi kerak.

Sol-major



Do-major



Re-major



Mi-major



Si-major



Fa♯-major



Do♯-major



Fa-major



Si♭-major



Mi♭-major



Lya♭-major



Re♭-major



Sol♭-major



MINOR GAMMALAR VA ULARNING UCHTOVUSHLIGI

La-minor (tabiiy)



La-minor (garmonik)



Lya-minor (melodik)



Mi-minor (tabiiy)



Mi-minor (garmonik)



Mi-minor (melodik)



Si-minor (tabiiy)



Si-minor (garmonik)



Si-minor (melodik)



Fa♯-minor (tabiiy)



Fa♯-minor (garmonik)



Fa♯-minor (melodik)



Do♯-minor (tabiiy)



Do♯-minor (garmonik)



Do♯-minor (melodik)



Re-minor (tabiiy)



Re-minor (garmonik)



Re-minor (melodik)



Sol-minor (tabiiy)



Sol-minor (garmonik)



Sol-minor (melodik)



IKKI OKTAVALI MAJOR GAMMALAR

Do-major va arpedjio



Sol-major va arpedjio



Re-major va arpedjio



La-major va arpedjio



Mi-major va arpedjio



ETYUDLAR

1-etyud

T.Rajabiy



2-etyud

Q.Usmonov



3-etyud

Q. Usmonov



4-etyud

G'. Qo'chqorov



5 Bir ovozli kuylar

QO'ZICHOG'IM

S.Boboyev musiqasi



OCHIL PAXTAJON

G'.Qodirov musiqasi



ANDIJON POLKASI

O'zbek xalq kuyi





OTUSH

Uyg'urcha raqs



GULXAN

D .Zokirov qayta ishlagan



YALLAMA YORIM

O'zbek xalq kuyi

Allegro



ARZI XOL

R. Tursunov

O'rtacha tez



SHAROB

O'zbek xalq musiqasi



FARG'ONACHA REZ

O'zbek xalq musiqasi




1.
2.

XORAZM LAZGISI

Q. Usmonov notaga olgan



DIL KUYI

M. Mirzaev



DILXIROJ

O'zbek xalq kuyi

Quvnoq




8va
p
p
mf
f

FARG'ONACHA

O'zbek xalq kuyi





EY GUL

M. Mirzaev

Allegro moderato





OROM

S.Yo'ldoshev musiqasi



YANGI TANOVAR

M.Mirzayev musiqasi



RAJABIY

O'zbek xalq musiqasi




1.
2.

TASNIFI BUZRUK




Bozgo'y
5- Xona
Bozgo'y
6- Xona


Bozgo'y
7- Xona


Bozgo'y
8- Xona
Bozgo'y

G‘AYRATLI QIZ

M.Leviyev musiqasi




mf
f
mf
1.
2.
rit.
a tempo

NAVRO‘ZI AJAM

O‘zbek xalq kuyi

Moderato




rit.

TARJI NAVO

O'zbek xalq kuyi

Moderato




1.
2.
1.
2.
1.
2.
1.
2.

RUBOBDA FORTEPIANO JO‘RLIGI BILAN IJRO ETILADIGAN ASARLAR

PAXTAOY

F.Nazarov musiqasi



KULCHA NON

I.Hamroyev musiqasi





YOSH MEXANIZATORMAN

Moderato

G'.Qodirov musiqasi




mf
p
1 3 1 2 1
2 4 2
1.
2.

QUSHLAR

F. Amirov



DO'LONCHA

F. Vasilev qayta ishlagan



GOPAK

M. Krasev qayta ishlagan




Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.

POLKA

M. Glinka



QO'SHIG'IMIZ AVJIDA

T. Azimov

Shoshilmasdan







BAHOR QO'SHIG'I

G'. Qodirov




Sol.
Pno.
mf
f
mp
mp

MARSH

M.Axmedov



RAQS

G'. Qodirov

Allegretto




Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
1.
2.
1.
2.

JONON

M. Mirzayev

Andante




Sol.
Pno.
mf
mp
f
cresc.
f


Sol.
Pno.
p
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
f
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
p
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
f
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
1.
2.
p
f
Pno.
1.
2.
p
ff

JO'JALARIM

M. Husaynli




Sol.
Pno.
Sol.
p
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
Sol.
f (p)
Pno.
p
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
pp

RAQS

B. Sobitov qayta ishlagan

Allegretto



NEAPOLCHA RAQS

P. Chaykovskiy

Andante




Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Allegro
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.

JON O'ZBEKISTON

S. Yudakov




Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
mp


Sol.
Pno.
f
f
Sol.
Pno.
mp
Sol.
Pno.
rit.
rit.
Sol.
Pno.

NAYREZ

Moderato

B. Giyenko qayta ishlagan




Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
mf
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
f
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
tr
tr
tr
Sol.
Pno.


Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
1.


2.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.
Sol.
Pno.

OHANGARON

Allegro

M.Leviyev musiqasi




f
mp
1.
2.

DAVRA QO'SHIG'I

S. Yudakov musiqasi,
Q. Usmonov rubob uchun moslagan



GULLOLA

Moderato

Il.Akbarov musiqasi



Glossari.

Applikatura – (lotincha-bosmoq**)** musiqa cholg'u asboblarida kuy ijro etganda barmoqlarni to`g'ri bosish va almashtirish tartibi.
Ansambl– (fransuzcha - birgalikda) musiqiy asarning jamoa bo`lib chalinadigan ijro turi
**An`anaviy soz** – ajdodlarimiz qo`llagan, ko`p holda diatonik tovushqator tartibida tuzilgan qadimiy sozlar.
Akademik soz – qayta ta`mirlanib pardalari xromatik tartibda keltirilgan aksariyat holda nota bilan chalishga moslashtirilgan cholg'u turi.
Antik davr – eramizdan oldingi IV asrdan boshlab, eramizning III asrigacha bo`lgan tarixiy davr.
Alt kaliti – uchinchi asosiy chiziqda yozilib **do** birinchi oktavani bildiradi.
Anqo – arfasimon musiqa asbobi.

B

Bas kaliti – to`rtinchi chiziqda yozilib **fa** kichik oktavani ifodalaydi.
Bulomon – damli cholg'u asbob
Bamm – ud sozining pastki yo`g'on tori nomi

G

Glissando – (ital'yancha – sirg'anib) ovozni uzmasdan bir tovushdan ikkinchi tovushgacha sirg'anib chalish.
Grif – musiqa cholg'u asboblari dastasi.

D

Dinamika – ovoz kuchi, musiqa tovushlarining past-baland ijro qilinishi.
Differentatsiya – tabaqalanish, guruhlarga bo`lish.
Deka – kosaxona.
Diapazon – (yunoncha – hamma torlar aro) xonanda ovozi, cholg'u asbobi, tovushqator, lad va kuyning hajmi, ya`ni tovush ko`lami.
Detashe – (fransuzcha - bo`lish, ajratish) torli kamonchali cholg'u asboblarida har bir tovush kamonchani bir tomon (past yoki yuqori)ga tortib ijro etish usuli.
Doira – zarbli cholg'u.
Dutor – cholg'u sozi.

Z

Zarb – cholg'u asboblarida tovush manbaini harakatga keltiruvchi kuch, urg'u.
Zir – ud sozining to`rtinchi tori nomi

I

Ilmi advor – O`rta asr musiqashunosligida kuy, she`riyat va amaliy ijroni birlashtiruvchi ilm.

K

Koloratura – kuyni turli mayda o`lchovdagi tovushlar bilan bezash.

Kamer ijrochiligi – (italyancha – uy, xona) kichik davra tinglovchilari uchun mo`ljallangan ijro turi.

Kuy – tovushlar vositasida bayon qilinadigan fikr.

L

Ligatura – lad, parda.

Lyutnya – Ud Sharq xalqlarining qadimiy tirnama cholg'u asbobi.

Legato – uzluksiz rez bilan chalish usuli, yoki bir tovushdan ikkinchi tovushga to`xtovsiz o`tish.

M

Maslas – ud sozining ikkinchi tori nomi.

Masno – ud sozining uchinchi tori nomi.

Musiqa – yunoncha so`zdan olingan bo`lib kuylarni tuzish.

Maroqand – Samarqandning eski nomi.

Mediator – asbobni chalishda foylaniladigan maxsus matodan (ibonit, shox va plastmassadan) yasalgan noxun.

Mizrob- torli cholg'ularni chalishda ishlatiladigan moslama, plektr.

Mizmar – tilli puflama asbob.

Mizaffa – arfasimon cholg'u asbobi.

N

Nag'ma - ton

Nay – damli cholg'u

Nay sozining qadimgi nomlari –Buryat va Mongollarda **limba,** Xitoyda **li**, Vetnamcha **sao**, forscha **tutek**, qozoqcha **subizg'a**, qirg'izcha – **uoo**, ozarbayjoncha **ney** va tatarcha **kaval**.

Noxun – Tanbur chalishda o`ng qo`lning ko`rsatkich barmog'iga kiydirilgan metaldan yasalgan maxsus asbob – **tirnoq**.

Nog'ora -zarbli cholg'u

O

Orkestr – turli cholg'u asboblaridan tuzilgan va akademik ijro yo`nalishiga ega bo`lgan sozandalar jamoasi.

Organ – yunonlik va rimliklarning musiqa asbobi.

P

Pitstsikato– (italyancha – tirnalib) cholg'u asbobida bosh barmoq yordamida ovoz chiqarish usuli.

Pozitsiya – (lotincha - vaziyat) cholg'u asboblarini chalishda

qo`llaniladigan barmoqlar holati.

Polimetriya– (yunoncha- o`lchov, miqdor) ko`p ovozli musiqada turli metrdagi taktlarning bir vaqtda qo`shilib kelish holati.

Politonallik – (yunoncha – ko`p va tonallik) ko`p ovozli musiqada bir yo`la

harakat qiluvchi ovozlarning turli tonallikda kelishi.

Pikkola changi – changning kichraytirib ishlangan turi. Ovoz ko`lami birinchi oktavadagi **do** dan uchinchi oktava **lya** tovushiga qadar.

Poema – unchalik katta bo`lmagan lirik yoki hikoyaviy xarakterdagi cholg'u musiqa asari.

Parda – cholg'u dastasidagi bog'lamalar.

R

Rabab – kamonchali asbob.

Rekonstruktsiya – ta`mirlash, takomillashtirish.

Registr – past, o`rta va baland tovushlarning o`zaro qo`shilib kelishi

Rapsodiya – kuylanadigan yoki deklamatsiya etiladigan epik dostonlar; epik qo`shiqlar – xalq mavzularida erkin shaklda yaratilgan cholg'u asari.

Repertuar – (frantsuzcha - ro`yxat) yakka sozanda, ansambl yoki orkestr jamoalari tomonidan ijro etiladigan asarlar.

Rubob – torli tirnama cholg'u.

S

Statuetka –haykalchalar.

Sozgar – soz yasovchi usta.

Standart soz – qolipga solingan, aniq soz.

Stakkato – (ctaccato) yakka tarzda uzib chalish.

Simfonietta – (italyancha - kichraytish) kichik hajmdagi simfoniya.

Solo – bir ijrochining yakka o`zi ijro qilishi (yakkanavoz tarzida)

Syuita – har bir qismi mustaqil asar bo`lgan turli xarakterdagi musiqiy asarlardan tarkib topgan turkum.

Sozchi – sozanda, cholg'uchi, cholg'u asbobida ijro etuvchi.

Sato – cholg'u sozi.

Safoil – raqs kuylarida chalinadigan zarbli cholg'u.

Setor – tanburning boshqa bir nomi.

Soz – musiqa cholg'u asbobi.

Surnay – puflama cholg'u asbob.

Sibizg'a – puflama asbob.

S.anj – forscha so`zdan olingan bo`lib, torli musiqa asbobi chang.

T

Tembr–har bir musiqa cholg'u asbobining o`ziga xos tovush xarakteri,tovush tusi

Terrokota – turli shakldagi haykalchalar.

Tenor kaliti – to`rtinchi chiziqda yozilib **do** birinchi oktavani ifodalaydi.

Tabulatura – (frantsuzcha – taxta , jadval) cholg'u musiqasini harf yoki raqamlar bilan yozishdagi qadimiy tizim.

Til (trost) – bir yoki ikki qavatli qilinib qamishdan yasalgan yassi parcha.Puflama

yog’och cholg’u asboblarining aksariyati til vositasida chalinadi.

Tanbur (mizani) – noxun bilan chalinadigan uzun dastali cholg’u asbobi

U

Ud – cholg’u sozi.

Ud torining qadimgi nomlari – bam, masno, maslas, zer va hadd (1,2,3,4,5 torlar)

Usuli lang – aralash o`lchovda yoki biroz buzilgan (chappazarb) usul.
Ufari soxta – o`zbek raqslarida chalinadigan doira usuling nomi.
Usul – sharq xalqlari musiqasida ijroning murakkab yo`llari. U turli zarblarning tez – tez almashib kelishidan hosil bo`ladi.

X

Xromatizm – (yunoncha – rang) diatonik laddagi pog'onalarning yarim tondan o`zgarish holati.
Xarrak – cholg'u torlarini ko`tarib turuvchi maxsus moslama.
Xonaki – tor doiradagi ijro yo`li.

CH

Changi- arfaga o`xshagan torli tirnama gruzin xalq cholg'u asbobi.
Chang – torli urma cholg'u sozi.

SH

Shashtor – cholg'u sozi.
Shodiy – qayroqning buxorocha nomi
Shodiyona – bayram tantanalarida ijro etiladigan kuylar.
Shohrud – qonunsimon torli asbob.

YA

Yakka zarb – yakka noxun. Bir zarb ma`nosida. Noxunni pastga yoki yuqoriga bir urib chalish usuli.
Yakka ijro – maxsus sozda musiqiy asarni yakka tarzda ijro etish uslubi.

Q

Qadimgi sozlar – lyutnya, shemane (musiqor), chag'ona, dilrabo, soz, chiltor (arfa) va hokazo.
Qayroq – raqqosalar ishlatadigan zarbli cholg'u.
Qonun – musiqiy cholg'u asbob.
Qo`biz – cholg'u sozi.

TS

Tsimbalo – chang shaklida yasalgan juda qadimiy ko`p torli cholg'u asbob. Hozirgi kunda Vengriya, Polsha, Ruminiya, Belorusiya, Ukraina va Moldaviyada keng qo`llaniladi.

G'

G'ijjak – torli kamonli cholg'u.

H

Halqum – inson ovozi
Hadd – o`tkir baland tovushga ega bo`lgan ud sozining beshinchi tori nomi

ADABIYOTLAR

1. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti o'quv-uslubiy qo'llanma O.F Nazarov.Toshkent-2008
2. O`zbekiston Respublikasi madaniyati ishlari vazirligi "Rubob navolari". Toshkent. 1993 y.
3. X.Nurmatov. "Rubob darsligi". Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1993y.
4. X Nurmatov. "O`zbek xalq musiqasi". Toshkent. "O`qituvchi" nashriyoti. 1998 y.
5. X.Nurmatov "Qashqar rubobi". Toshkent. "O`qituvchi nashriyoti". 2003 y.
6. Sh.Raximov "Dutor". Toshkent. "G'.G'ulom" nashriyoti. 2005 y.
7. Sh.Raximov. O.Nazarov. Sh.Jonaydarov. "Cholg'u ijrochiligi ansambli" o`quv qo`llanma. Toshkent. 2005 y
8. Sh.Raximov. "Dutor " o'quv qo`llanma. Toshkent. 2007 y.
9. Sh.Raximov. "Cholg'ulashtirish va partitura o`qitish" o`quv qo`llanma. Toshkent. 2009 u.
10. Sh.Raximov. "Cholg'u ijrochiligiga o`rgatish metodikasi" o`quv qo`llanma. Toshkent. 2009 y.
11. Sh.Raximov. X Nurmatov. "Cholg'u ijrochiligi tarixi" o`quv qo`llanma. Toshkent. 2009 y.

MUNDARIJA

1. Kirish…..... …….....5-7
2. Milliy cholg’u turlarining tarixi.....8
3. O’zbek xalq cholg’ulari tavsif.....9-26
4. Qashqar rubobi haqida ma’lumot.....27-33
5. Qashqar rubobining tuzilishi.....34
6. Qashqar rubobida ijrochilik ta’limi.....35-40
7. Shtrixlar va ularning ijro etish usullari.....41-49
8. Gamma va etyudlar.....50-69
9. Etyudlar.....70-71
10. Bir ovozli kuylar..Andijon polkasi.O’zbek xalq kuyi.....72-73
11. Gulxan. D.Zokirov qayta ishlagan.....74
12. Yallama yorim. O’zbek xalq kuyi….....74
13. Arzi xol.R.Tursunov.....75
14. Sharob.O’zbek xalq kuyi.....76
15. Farg’onacha rez.O’zbek xalq kuyi.....77-78
16. Xorazm lazgisi.O’zbek xalq kuyi.....79
17. Dil kuyi.M.Mirzoyev.....80
18. Dilxiroj.O’zbek xalq kuyi.....81-82
19. Farg’oncha.O’zbek xalq kuyi.....83-84
20. Ey gul.M.Mirzoyev.....85
21. Orom.S.Yuldoshev.....86
22. Yangi tanovar.M.Mirzoyev.....87
23. Rajabuy,O’zbek xalq kuyi.....88-89
24. Tasnifiy buzruk.O’zbek xalq kuyi.....90-93
25. G’ayratli qiz.M.Leviyev.....94

26. Navro’zi ajam.O’zbek xalq kuyi.....95-96
27. Tarji navo.O’zbek xalq kuyi.....97-98
28. Rubobda fortepiano jo’rligi bilan ijro etiladigan asarlar.Paxtaoy.F.Nazarov.99-100
29. Kulcha non.I.Hamroyev.....101
30. Yosh mexanizatorman.G’.Qodirov.....101
31. Qushlar.F.Alimov.....102
32. Do’loncha,F’Vasilev.....103-104
33. Gopak.M.Krasev.....105-106
34. Polka.M.Glinka.....107
35. Qo’shig’imiz avjida.T.A’zimov.....107-108
36. Bahor qo’shig’i.G’Qodirov.....109
37. Marsh.M.Axmedov.....110
38. Raqs.G’Qodirov.....111-112
39. Jonon.M.Mirzoyev.....113-117
40. Jo’jalarim.M.Husayinli.....118-120
41. Raqs.B.Sobitov.....121
42. Neopolcha raqs.P.I.Chaykovskiy.....122-124
43. Jon O’zbekiston.S.Yudakov.....125-127
44. Nayrez.B.Giyenko.....128-133
45. Ohangaron.M.Leviyev.....134-135
46. Davra qo’shig’i.S.Yudakov.....136
47. Gullola.I.Akbarov.....137
48. Atamalar lug’ati.....138-141
49. Adabiyotlar.....142
50. Mundarija…… 143-144